

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK 343.2 (043.3) (575.1)

AKRAMOVA MUAZZAM TURDIQUL QIZI

**JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARI:
ULARNING FARQLI JIHATLARI HAMDA QONUNCHILIK
TALABLARI**

5A240116– Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
yu.f.n. X.Abzalova

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA

KIRISH	4-10
---------------------	-------------

I BOB. JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARI TUSHUNCHASI, BELGILASH ZARURATI

1.1. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslari tushunchasi, belgilash zarurati	11-8
1.2. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining retrospektiv tahlili	19-24
1.3. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining xorijiy qonunchilik talablari	25-33

II BOB. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH ASOSLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

2.1. Javobgarlikdan ozod qilish asoslarining turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslari	34-39
2.2. Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asoslari	40-46
2.3. Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilishning asoslari	47-53

III BOB. JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

3.1. Jazodan ozod qilish asoslarining turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslari	54-61
3.2. Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish asoslari	62-70
3.3. Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning asoslari	71-78

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

ILOVA

Magistrlik dissertasiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi bo'lgan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish instituti hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, insonparvarlik tamoyili ifodasi bo'lgan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Konstitutsiya qabul qilingan kunning 25 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi nutqida "Adashib jinoyat yo'liga kirgan yoki sodir etgan qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lgan insonlarga yana bir bor imkon berish, ularni jamiyatga, oilasi bag'riga qaytarish muhim ijtimoiy masalalardan biri hisoblanadi"¹, deb e'tirof etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining II ustuvor yo'nalishi "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanda isloh qilish" deb nomlanib, uning 2.3-bandida "Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish" borasida ustuvor vazifalar belgilab berilgan².

Shuningdek, ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi ushbu sohadagi islohotlarni jadal davom ettirish davr talabi ekanligini ko'rsatmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, boshqa yillarga qaraganda, 2017-yilda 9470 ta jinoyat ishi bo'yicha 12505 kishiga nisbatan jinoyat ishi ko'rib tamomlangan. Shulardan, 7089 jinoyat ishi bo'yicha 9981 kishiga nisbatan sud

¹ O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Konstitutsiya qabul qilingan kunning 25 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi nutqi matni. <http://prezident.uz>

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

hukmi chiqarilgan. 2346 ta jinoyat ishi bo'yicha 2480 kishiga nisbatan ishlar tugatilgan.¹

2017-yilda JK 64-moddasi, JPK 84-moddasi 1-qism, 1-bandi asosida 13 ta jinoyat ishi bo'yicha 14 kishi, JK 68- moddasi, JPK 84-moddasi 1-qism, 2-bandi asosida 112 ta jinoyat ishi bo'yicha 155 kishi, JK 66¹-moddasi asosida 2144 ta jinoyat ishi bo'yicha 2213 kishi, JK 65-moddasi, JPK 84-moddasi 5-qism, 1-bandi asosida 35 ta jinoyat ishi bo'yicha 52 kishi, JK 66-moddasi, JPK 84-moddasi 5-qism, 3-bandi asosida 18 ta jinoyat ishi bo'yicha 19 kishi, JK 87-moddasi 1-qismi asosida 1 ta jinoyat ishi bo'yicha 1 kishi javobgarlikdan ozod qilingan.

2017-yilda, JK 76-moddasi, JPK 463-moddasi 2-qism 1-bandi asosida 2017-yilda 322 ta jinoyat ishi bo'yicha 573 kishi, JK 76-moddasi, JPK 463-moddasi 3-qism 1-bandi asosida 2017-yilda 31 ta jinoyat ishi bo'yicha 50 kishi, JK 70-moddasi, JPK 463-moddasi 3-qism 3-bandi asosida 2017-yilda 22 ta jinoyat ishi bo'yicha 43 kishi, JK 71-moddasi, JPK 463-moddasi 3-qism 3-bandi asosida 2017-yilda 46 ta jinoyat ishi bo'yicha 56 kishi jazodan ozod qilingan. Ushbu ma'lumotlar asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilish yildan yilga o'sib borayotganligini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, "javobgarlikdan va jazodan ozod qilish" tushunchalariga Jinoyat kodeksida yagona ta'rif mavjud emas. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasiga qonuniy ta'rif berish, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari mexanizmini takomillashtirish, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlariga berilgan ta'riflarni aniqroq yoritib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasi, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari mexanizmini, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlariga berilgan ta'riflar hozirgi vaqtda ham nazariyotchi olimlar, ham huquqni qo'llash sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislar o'rtasida ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda.

¹ Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining Sud amaliyotini tahlil qilish va statistika bo'limi hisoboti

Yuqoridagi masalalarning yechimini topish avvalo qonun hujjatlarini tahlil qilish, ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni va bu orqali javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasiga qonuniy ta'rif berish, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi.

Mazkur masalalar o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyektini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadigan javobgarlikdan va jazodan ozod qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmetiga javobgarlikdan va jazodan ozod qilish huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi Jinoyat kodeksi normalari, normativ-huquqiy hujjatlar va ushbu masalaga oid nazariy asoslarni belgilab beruvchi ilmiy asarlar kiradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning qonunchilikda belgilangan asoslarini tahlil qilish va qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasini nazariy huquqiy jihatdan tahlil qilish;

- jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining retrospektiv tahlilini o'rganish;

- javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining xorijiy qonunchilik talablarini tadqiq qilish;

- javobgarlikdan ozod qilish asoslarining turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslarini o'rganish;

- qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asoslarini tahlil qilish;

- shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asoslarini o'rganish;

-jazodan ozod qilish asoslari turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslarini o'rganish;

-qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish asoslarini tadqiq qilish;

- shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning asoslarini o'rganish;

Javobgarlik va jazodan ozod qilish sohasida yuzaga kelayotgan amaliy muammolarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shu bilan belgilanadiki, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasi, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlarining huquqiy tabiatini birinchilar qatorida yoritib berishga harakat qilingan. Ushbu mavzuga muallif tomonidan nazariy va amaliy jihatdan yondashilgan. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning asoslarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va konsepsiyalar mazkur sohadagi izlanishlar bo'yicha yangi yo'nalishlarni ochib beradi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

1. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari Jinoyat kodeksining beshinchi bo'limida belgilangan bo'lib, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining mazmuni va uning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil etish natijasida "javobgarlikdan ozod qilish" va "jazodan ozod qilish" tushunchalariga ta'riflar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra "jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sodir etilgan jinoyat, jinoyatchi shaxsining xususiyati, shu jumladan, uning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori bilan inobatga olgan holda jinoiy javobgarlikni qo'llash maqsadga muvofiq emas, deb topib uni qo'llamaslik", deb ta'rif berish mumkin yoki "jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsning jinoyat sodir etganidan so'ng, uning qilmishida jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgani holda, jinoyatchining shaxsiga va jamiyatdagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan omillar ta'sirida davlat tomonidan uning kechirilishidir".

Jinoiy jazodan ozod qilish tushunchasiga “Jinoiy jazodan ozod qilish shaxsni qilmishi sudda mazmunan ko‘rib chiqilib, ayblov hukmi chiqarilib, mahkumni jazo tayinlashdan yoki tayinlangan jazoni o‘tashdan, shuningdek o‘tayotgan jazoni davom ettirishdan ozod qilish”, deb yoki “shaxsning sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan jazo tayinlangan holda va jazo maqsadiga tayinlangan jazoni o‘tamagan holda ham erishish mumkin, degan xulosaga kelgan holda hamda uning shaxsiga bog‘liq bo‘lgan omillar va jamiyatda sodir bo‘ladigan omillar ta’sirida jazodan ozod qilinishi deb ta’rif berish mumkin.

2. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlariga berilgan ta’riflarga kiritiladigan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi takliflar ilgari surildi.

Mazkur o‘zgartirishlar quyidagilar aks ettirilishi kerakligi bildirildi:

Jinoyat kodeksining 64-modda 1-qism “a” bandi *“ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan kundan boshlab - ikki yil”* jumlasini *“ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan kundan boshlab - uch yil”* tarzida almashtirilishi, JK 66¹-moddasi 3-qism bilan *“Iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo‘lsa, jinoyat natijasida davlat budjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo‘lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi, tarzida to‘ldirilishi, 64-modda 6-qismi, 69-modda 5-qismidagi “javobgarlikka tortish masalasini sud tomonidan hal qilinadi”, “muddatlar o‘tishini qo‘llash masalasini sud hal qiladi”* degan jumlar *“sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori, jinoyatchining shaxsni inobatga olgan holda hal qilinadi”* degan jumlar bilan to‘ldirilishi, Jinoyat kodeksiga yangi **“75¹-modda. Jazoni ijro etishni keyinga qoldirish”** modda kiritish jazodan va javobgarlikdan ozod qilishni JK Maxsus qismining boshqa moddalariga, jumladan, JK 210-moddasi, 214-modda (1-qismida ko‘rsatilgan qilmishni sodir etgan shaxslarga nisbatan)larga ham kiritish, 238-moddasining 1-qismiga **“Agar shaxs yolg‘on guvohlik jinoyatini sodir etgan bo‘lsa, hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar yoki belgilangan jarima undirilgunga qadar o‘z ko‘rsatmalarining yolg‘onligini tan olsa, bu**

haqida xabar bersa, unga tayinlangan jazo yengilrog‘i bilan almashtirilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkin” degan so‘zlar bilan to‘ldirilishi taklif etiladi.

3. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining jinoyat qonunchiligining boshqa institutlar tizimidagi o‘rni tahlil qilindi. Unga ko‘ra javobgarlikdan va jazodan ozod qilish jinoyat huquqining muhim institutlaridan hisoblanib, jinoyat sodir etgan shaxsning aybi to‘la isbotlangan holda, uni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tariqasida davlatning jazodan voz kechishi va javobgarlikni qo‘llamasligidir.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish instituti, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari mexanizmini, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning ayrim jihatlari xorijiy mamlakatlarda П. В. Коробов¹, М. А. Ожиганова², Я. Н. Матвеева³, О. А. Владимирова⁴, В. А. Терентьева⁵, И.В. Якоби⁶, С.В. Данелян⁷, Э. Аскеров⁸, В.В. Сверчков, А. М. Крепышев⁹, А. М. Балафендиев¹⁰, А. В. Кузнецов, Сун Ингчун¹¹, Ю.С.Свешникова¹², М. А. Стадник¹, Ф.Р.

¹ Сущность освобождения от уголовной ответственности (исходные положения)// Вестник Волжского Университете им Татищева. 2010.№ 74, С-2.

² Освобождение от уголовной ответственности: понятие, виды, практика применения и тенденции развития. Бакалаврская работа. -Тольяттинский государственный университет, 2016. - С.10

³ Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. авт. дисс...кан.юр. наук. - Санкт – Петербург, 2006. - С.14

⁴ “О соотношении понятий «освобождение от уголовной ответственности» и «освобождение от уголовного наказания» по уголовным кодексам России и Республики Беларусь” www.institutemvd.by/components/com

⁵ О понятии освобождения от уголовного наказания в доктрине уголовного права.// Уголовная юстиция-2017. -№ 10. - С.9

⁶ Развитие института уголовной ответственности и институтов освобождения от уголовной ответственности и уголовного наказания в российском государстве: теоретический и историко-правовой аспект. авт. дисс...кан. юр. наук. - Краснодар,2007. - С.

⁷ Освобождение от отбывания наказания в Уголовном законодательстве российской Федерации (теоретические, законодательные и Правоприменительные аспекты). авт. дисс...кан.юр. наук. - Махачкала ,2006. - С.3

⁸Институт освобождения от уголовного наказания в уголовном законодательстве зарубежных стран. //Ж.Уголовное право. №4.,2005. -С.9.

⁹ Освобождение от уголовной ответственности в связи с истечением сроков давности. Доклады Башкирского университета. 2017. Том 2. №2 –С.356

¹⁰ Социально-правовое назначение института амнистии. Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 1, Право. - Казань.: С.169

¹¹ О некоторых вопросах уголовно-правовой регламентации изменения обстановки в России, Монголии и Китае. Вестник Омской юридической академии. 2013. № 2 (21).-С.124

¹²Деятельное раскаяния в российском уголовном праве. Магистерская диссертация.-Красноярск.: 2017.-С.24

Сундурова, И.А. Тарханова ², Barbara Wootton ³, О.В. Костылева ⁴, А.П.Бохан, С.С.Хачатрян⁵ va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan doirada ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida D.R.Qurbonov⁶, A.S.Yakubov⁷, R.Kabulov, A.A.Otajonov ⁸, M.Usmonaliyev ⁹, Sh.Berdiyev. ¹⁰, M.H Rustambayev ¹¹, Sh. G. Niyazova¹², K.Mirzajonov¹³ va boshqalar javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining nazariy jihatlarini va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, analiz, sintez, dialektik, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy yondashuv, induksiya, deduksiya, joriy qonunchilikni tahlil etish, tizimlashtirish va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslari mustahkamlangan normalarni tahlil qilish, ularni amaliyotda qanday tartibda qo‘llanilishini o‘rganish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va shu asosda ushbu muammolarni hal qilish maqsadida qonunchilikka takliflar tayyorlashda ifodalanadi.

¹ Нормы о деятельном раскаянии в истории российского уголовного законодательства и законодательстве зарубежных стран. Вестник. Казанского юридического института МВД России. № 2(24) 2016.: -С.123

² Уголовное право России. Общая часть. Учебник. Москва.:2014. Казанский Государственный Университет имени В.И. Ульянова-Ленина. Электрон вариант.

³Crime and The Criminal Law. The Hamlyn Lectures. London.: 1981.P.-89

⁴ Освобождение от наказания в связи с изменением обстановки: современные тенденции правоприменения// Библиотека криминалиста. Научный журнал. Москва, 2013. -№ 2. -С.284.

⁵Классификация видов и оснований освобождения от наказания// Юрист-Правовед. - Москва, 2014. -№. - С.59

⁶ Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolari: Diss...yur.fan.nomzodi.-Samarqand. :2008.-B.37

⁷Jinoyat huquqi.Umumiy qism.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 352

⁸Jinoyat huquqi.Umumiy qism.-T.:O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.357.

⁹Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.-T.:”Yangi asr avlodi”,2005, 662b

¹⁰ Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011- B.77

¹¹Жиноят ҳуқуқи. Птом.-Т.: “ILM ZIYO”,2011.-Б.177

¹²Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.: 2010. -B.99

¹³Теория и практика амнистии и помилования: проблемы и решения. Дисс...док. юр. наук. -Ташкент.: 1995. -С.15

Ish tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat bo'lib, uning hajmi 80 betni tashkil qiladi.

I BOB. JAVOBGARLIKDAN VA JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARI TUSHUNCHASI, BELGILASH ZARURATI

1.1. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslari tushunchasi, belgilash zarurati

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng sud-huquq sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jazolarning repressiv, ya‘ni jazolovchi rolini emas, balki ularning mahkumni axloqan tuzalishi uchun ahamiyatini kengaytirish amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining II. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo‘nalishining 2.3. Ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini takomillashtirish bandida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish kabi vazifalar hamda qilmishning jinoiyligini istisno etadigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonunni qo‘llash tartibini belgilash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish belgilangan.

Jamiyatda tartib-intizomni ta‘minlovchi omil bu davlatda huquq normalarining mavjudligi, ularning har tomonlama amalda qo‘llanilishiga bog‘liq. Shu asosda davlatlar o‘zining milliy qonunchiligini yaratar ekan, avvalo, shaxs, fuqarolar manfaatlarini ustun qo‘yishi zarur. Jamiyatdagi bag‘rikenglik, insonparvarlik, o‘z aybini bo‘yniga olganlarni jamoa tomonidan kechirish hissi har bir davlatning jinoyat qonunchiligida ham u yoki bu shaklda belgilangan.

Jinoiy javobgarlik tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat Kodesksining 16-moddasida “Jinoyat uchun

javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir”, deb belgilangan.

Jinoyat huquqi mutaxassislari bir ovozdan, jinoiy javobgarlik shaxsning o‘tmishdagi jinoiy qilmishi uchun javobgarlikni ifodalashini ta’kidlaydilar¹.

I.E.Zverchavskiy, A.L.Ivanovlarning fikricha, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o‘z mohiyatiga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsni jinoyat qonuni bilan yuzaga kelgan nizodan jazosiz chiqishga yo‘l qo‘yadigan yagona huquqiy ta’sir chorasidir².

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti O‘zbekistonda tarixan qaror topib kelgan institut bo‘lib, jinoyat huquqi shakllangan davrdanoq uning ba’zi institutlari amalda bo‘lib kelgan. Ammo qonunda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga legal ta’rif berilmagan, bunday ta’rif O‘zSSRning 1959-yilgi Jinoyat Kodeksida ham berilmagan edi. Demak, biz mazkur bo‘shliqni bartaraf etish uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning tavsifiy belgilarini aniqlab, unga ta’rif berishimiz zarur bo‘ladi. Bizningcha, ushbu institutga davlat ammo uni jazolashdan jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishini salbiy baholashi, voz kechishi”,-deb ta’rif berish mumkin³.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarining mohiyati sodir etilgan jinoyat, jinoyatchi shaxsining xususiyati, shu jumladan, uning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori bilan inobatga olgan holda jinoiy javobgarlikni qo‘llash maqsadga muvofiq emas, deb topib, uni qo‘llamaslikda ifodalanadi. Shu o‘rinda, ta’kidlash lozimki, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish faqatgina Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish sodir etilganida vujudga keladi. Agar shaxsning qilmishi kam ahamiyatli bo‘lsa yoki zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat yoxud jinoiy javobgarlikni istisno etuvchi boshqa holatlarda sodir

¹ Коробов П.В. Сущность освобождения от уголовной ответственности (исходные положения)// Вестник Волжского Университете им Татищева. 2010.№ 74, С-2.

² М.А.Ожиганова. Освобождение от уголовной ответственности: понятие, виды, практика применения и тенденции развития. Бакалаврская работа. -Тольяттинский государственный университет, 2016.-С.10

³ Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo‘llash muammolari: Diss...yur.fan.nomzodi.-Samarqand. :2008.-B.37

etilgan hamda shaxsning harakati aybli bo'lmasa yoki jinoyat tarkibi mavjud bo'lmagan boshqa holatlarda shaxs umuman jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, vakolatli davlat organining sudlov yoki ayblovni bekor qilish, shuningdek, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasini qo'llashni bekor qilish haqidagi aktidir. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini tergovchi, prokuror va sud qo'llashi mumkin bo'lsa, jazodan ozod qilish faqatgina sudning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, jinoiy javobgarlikdan ozod etish instituti jinoyat sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgandan so'ng qo'llanilishi mumkin. Shunga asosan, "jazo qo'llash tahdidi bilan" jinoyat deb topiladigan qilmishni sodir etgan shaxsgina jazodan ozod etilishi mumkin.

Shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalasi ikki omil mavjud bo'lgandagina yuzaga keladi: birinchidan, shaxs jinoyat belgilarini ifodalagan qilmishni sodir etganida, shuningdek, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'lgandagina; ikkinchidan, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda¹.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, o'z mazmuniga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxsni buning huquqiy oqibatlaridan ozod qilishdir. Shaxsni har qanday asos bo'yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish qilmishning huquqiy tabiatini o'zgartirmaydi, chuki sodir etilgan qilish hamisha jinoyat bo'lib qolaveradi va yuridik mohiyati saqlanib qoladi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolatli organning Jinoyat kodeksida belgilangan asoslar bo'yicha shaxsni hukm qilishni rad etish haqida qaror qabul qilishda yoxud ayblov hukmi orqali alohida protsessual tartibda jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning boshqa shaklini qo'llashida namoyon bo'ladi².

¹ A.S.Yakubov.Jinoyat huquqi.Umumiy qism.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 352

² A.S.Yakubov.Jinoyat huquqi.Umumiy qism.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 351

Jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish jinoyatlarning umumiy va maxsus oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun chiqaruvchi ayrim holatlarda jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo qo‘llamasdan ham uning xulqini tuzatish mumkin yoki qonunda nazarda tutilgan shartlar mavjudligida ularga jazo qo‘llamaslikni hamda javobgarlikdan ozod qilish qoidalarini belgilaydi.

Jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar jinoyatning ayrim belgilari mavjud emasligida, qilmish yoki oqibatning jinoiy-huquqiy ahamiyati kasb etmasligida, shuningdek, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy foydaliligida ifodalansa, jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etishda aybi isbotlangan shaxslarga qo‘llaniladigan huquqiy choradir¹.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qiluvchi normalarning mazmuni turli tarixiy davrlarda hokimiyatni ushlab turgan shaxslarning yuritayotgan siyosatidan kelib chiqib belgilangan. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining mavjudligi “jinoiy javobgarlik” va “jazo” tushunchalarini o‘rtasida chegara o‘rnatdi².

Olimlarning jinoyat huquqining institutlaridan biri bo‘lgan jinoiy javobgarlikdan ozod etishga oid bildirilgan fikrlarni tahlil etish asosida uning quyidagi:

- 1) Har qanday jinoiy javobgarlikdan ozod etish hukm e‘lon qilinguniga qadar, shaxsning sud aybdor deb topishidan oldin, ish yuritishning sudgacha bo‘lgan bosqichlarda ham amalga oshirilishi mumkin;
- 2) Jinoiy javobgarlikdan ozod etish aybdorning har qanday jinoyat huquqiy ta’sir choralari (jumladan, jazo) dan ozod etilganligini anglatadi;
- 3) Jinoiy javobgarlikdan ozod etish shaxsni jazo tayinlamasdan ham axloqan tuzalishi mumkin, deb hisoblanganida qo‘llaniladi³.

¹ R.Kabulov, A.A. Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012. - B.357.

² Матвеева Я.Н. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. авт. дисс... кан. юр. наук. - Санкт – Петербург, 2006. - С.14

³ Уголовное право. Общая часть/Под ред И.Я.Козначенко и З.А.Незнамовой.-М.1997.-С.416-417

Jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni olimlar bir nechta xususiyatlari: qo'llash asosi, jinoiy ish yuritishning bosqichi, protsess ishtirokchilari (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum); jazodan ozod etuvchi organ (tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sud)ga ko'ra farqlarga bo'lishadi. Haqiqatdan ham, protsessning turlicha ishtirokchilari – turli xil huquq hajmi va majburiyatlarga ega, turli xil organlar – vakolat hajmiga ko'ra farqlarga ega. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoiy ish yuritishning turli xil bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin, jazodan ozod qilish sud hukmi bilangina, yoxud jazoni o'tash vaqtida amalga oshirilishi mumkin. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turli xil rivojlanuvchi jarayondir. Javobgarlikdan ozod qilishni keng mazmunda tushunish mumkin. U o'z ichiga jazodan ozod qilishni qamrab olishi yoki qamrab olmasligi mumkin, jazodan ozod qilish esa javobgarlikdan ozod qilishni umuman nazarda tutmaydi¹.

Boshqa bir huquqshunos olimlar jazodan ozod qilish tushunchasini maxsus huquqni qo'llash aktida ta'qiqlangan jinoyatni sodir etgan shaxs sud hukmi bilan tayinlangan jazoni davlat tomonidan aniq sharoit tufayli ijro etishni rad etishi yoki kelajakda ijro etilishini rad etishini jamlagan normalar yig'indisi instituti deb hisoblaydilar².

Jinoiy jazodan ozod qilish deganda shaxsni qilmishi sudda mazmunan ko'rib chiqilib, ayblovi hukmi chiqarilib, mahkumni jazo tayinlashdan yoki tayinlangan jazoni o'tashdan, shuningdek o'tayotgan jazoni davom ettirishdan ozod qilish tushuniladi.

Jazodan ozod qilish esa jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlab, so'ng jazodan ozod qilish yoki jazoning muayyan qismi o'tab bo'linganidan keyin jazodan ozod qilishdan iboratdir.

¹ О.А.Владимирова. “О соотношении понятий «освобождение от уголовной ответственности» и «освобождение от уголовного наказания» по уголовным кодексам России и Республики Беларусь” www.institutemvd.by/components/com

² В.А.Терентьева.О понятии освобождения от уголовного наказания в доктрине уголовного права.// Уголовная юстиция - 2017. - №10. - С. 9

Yuridik adabiyotlarda jazodan ozod qilish bilan birga depenalizatsiya o'rtasida o'xshashlik mavjud, deb hisoblashadi. Ya.V.Lobov depenalizatsiyaga "jinoyat sodir etgan shaxsning maxsus shaxsiga oid va qilmishning xususiyati holatiga ko'ra vakolatli mansabdor shaxsning shaxsni jazodan ozod qilish imkoniyati deb ta'rif bergan. Ushbu fikrga qo'shilish qiyindir. Chunki, juda ko'p yuristlar depenalizatsiyani Jinoyat kodeksidan biror-bir sanksiyaning chiqarib tashlanishi, deb hisoblashadi¹.

Jinoiy jazodan ozod qilish oqlov hukmi chiqarishdan butunlay farq qilib, shaxsning jinoyat sodir etishda aybi yo'qligi aniqlansa, sud tomonidan oqlov hukmi chiqariladi, jazodan ozod qilishda esa, jinoyat hodisasi sodir etilgan, tegishli tergov hujjatlari orqali jinoyat to'la isbotlangan va jinoyat sodir etishda ayblangan shaxs o'z jinoyatini tan olgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi.

Sud jinoyat sodir qilishda ayblanayotgan shaxsga jazo tayinlashda JKning 54-moddasi talablariga qanchalik darajada adolat, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olish prinsiplariga rioya qilmasin, ularni ideal ravishda hisobga ola olmaydi. Bundan tashqari, sud jazo tayinlar ekan, tayinlangan jazoning mahkumga ta'siri, kelajakda bu jazo uning ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini, jazoning maqsadiga erishishda tayinlangan jazo turining ahamiyati, shaxsning halol turmush tarziga o'tib olishi uchun qancha vaqt kerakligini oldindan bila olmaydi.

Ikkinchi tomondan sud tomonidan tayinlangan jazo muddatining muayyan qismi o'talganidan keyin, shaxsning jamiyat uchun ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi munosabati bilan jazoning maqsadiga ertaroq erishilganligi tufayli jazoni o'tashni davom ettirishi maqsadga muvofiq bo'lmay qoladi.

¹ В.А.Терентьева.О понятии освобождения от уголовного наказания в доктрине уголовного права.// Уголовная юстиция – 2017. - №10. -С. 9

Yuqorida aytilganlarga ko'ra, Jinoyat kodeksida jazodan ozod qilishning har xil turlarini nazarda tutilganligi asosli va jinoyat qonunining insonparvarlik prinsipiga (7-modda) to'la muvofiq keladi¹.

Bulardan tashqari, Jinoyat kodeksining Maxsus qismining bir qator moddalarida jazodan ozod qilish nazarda tutilgan. Jumladan, 157-moddaning (davlatga xoinlik qilish) uchinchi qismi; 159-moddaning (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish) beshinchi qismi; 160-moddaning (jossuslik) uchinchi qismi va hokazolar. Jinoyat Kodeksining Maxsus qismi moddalarida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish, agar o'sha normada nazarda tutilgan shartlar mavjud bo'lsa, faqat o'sha moddada ko'rsatilgan jinoyat uchun tayinlangan jazodan ozod qilinishi mumkin, xolos.

Sud-huquq tizimini liberallashtirilishi munosabati bilan JK Maxsus qismining anchagina moddalari yangi mazmun bilan to'ldirilib, unda yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplanganda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmasligi belgilanadi. Masalan, 132-moddaning (tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast etkazish) to'rtinchi qismi; 173-moddaning (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish) to'rtinchi qismi va hokazolar. Shuningdek, bir qator moddalar "Yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi"-degan qism bilan to'ldirildi².

Shaxs tomonidan davlat tomonidan muhofaza qilinadigan munosabatlarga zarar yetkazganda keltirilgan zararni aybdor tomonidan qoplanishi unga nisbatan ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanmasligi shaxsning jamiyatdan ajralmasligi uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

¹ M.Usmonaliyev.Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-T.: "Yangi asr avlodi", 2005, B.662.

² M.Usmonaliyev.Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-T.: "Yangi asr avlodi",2005, B.662.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat huquqining mustaqil instituti hisoblanadi, jazodan ozod qilish esa ushbu institutni tarkibiga kiruvchi institut bo'lib, o'z ichiga muayyan bosqichda amalga oshirilishini ya'ni ayblov hukmi chiqarilgandan keyin yoki jazoni ijro etish paytida amalga oshiriladi¹.

Dastlabki tergov va sud organlari aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilar ekan, quyidagi talablarga rioya qilishlari maqsadga muvofiq.

Shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilish o'z-o'zidan uning jazodan ham ozod qilinishiga sabab bo'ladi. Bunda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti dastlabki tergov bosqichi boshlanishi, yakuni esa, ayblov hukmi chiqqunga qadar bo'lgan sud muhokamasida yakunlanishi mumkin. Bundan so'ng esa, faqatgina jazodan ozod qilish instituti qo'llanilishi mumkin².

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortib, jazo tayinlamasdan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishdan iboratdir.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish va jinoiy jazodan ozod qilish bir xil tushunchalar bo'lmay, o'z qo'llanish asoslariga, mazmuniga ko'ra, ozod qilish qo'llanayotgan subyektga ko'ra farq qiladi. Ularni ozod qilishning maqsadi ham bir xil bo'lsada, ammo javobgarlikdan ozod qilishda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirmasligini hisobga olib, uni javobgarlikka tortish maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelinsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi³.

Javobgarlik va jazoning farqi bo'lgani singari jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish ham alohida-alohida institutdir. Avvalo, javobgarlik va jazo tushunchalariga to'xtaladigan bo'lsak, javobgarlik nisbatan keng qamrovli

¹ О.А.Владимирова. "О соотношении понятий «освобождение от уголовной ответственности» и «освобождение от уголовного наказания» по уголовным кодексам России и Республики Беларусь" www.institutemvd.by/components/com

² Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi. –Samarqand.: 2008. -B.45

³ M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-T.: "Yangi asr avlodi", 2005, B.662.

tushuncha bo'lganligi sababli jazo uning tarkibiy qismidir, biroq javobgarlik tarkibiga nafaqat jazo, balki boshqa huquqiy ta'sir choralari ham kiradi.

1.2. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutining retrospektiv tahlili

Masalaning tarixini o'rganmay turib, uning nazariyasini yaratib bo'lmaydi, degan g'oyadan kelib chiqib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining o'tmishiga nazar tashlasak, jinoyat huquqidagi bu institut necha yuz yillar muqaddam shakllangan, turli davrlarda qo'llanilib kelingan huquqiy chora ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti tarixdan beri mavjud. Jinoiy-huquqiy nizolarni hal qilishda tarixan qaror topgan eng yaxshi vosita jabrlanuvchi va aybdorning o'rtasidagi yetkazilgan zararni qoplash haqidagi kelishuvdir. Turli xil tarixiy davrlarda jinoyat huquqiy normalar asosiy normalar sifatida o'rnatilgan bo'lib, jinoyat sodir etgan shaxsni jamoat tomonidan ta'sir va choralar ko'rilishi imkoniyatini berib ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish mumkinligini bildirgan. Yurtimiz hududida musulmon qonunchiligi, shariat hukmron bo'lgan davrlarda islom huquqi – fiqh asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlari amalda bo'lgan. Jabrlanuvchi bilan ayblanuvchining yarashishi tovon to'lash orqali yetkazilgan zararni qoplash, ayol yoki keksalarga nisbatan jazoni yumshatish kabi me'yorlar ko'plab qo'llanilgan¹.

Yetkazilgan zararni qoplash tushunchasi qadimgi Rus davlatida ham mavjud bo'lib, "Russkaya Pravda" nomli qonunlar to'plamida yer egasiga uning xizmatchisini o'ldirgani uchun muayyan miqdordagi pul mablag'ini to'lash lozimligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, jabrlanuvchining qarindoshlariga ham yetkazilgan zararni qoplash nazarda tutilgan. Zararni to'lash huquqining amalga

¹ Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011. -B.77-78

oshirilishi davlatning majburiy kuchining ifodasi edi ¹. 1917 yil oktabr to'ntarishidan keyin O'zbekistonda jinoyat huquqi, albatta, ayrim mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, ammo yagona qolipda-sobiq Ittifoq jinoyat qonunchiligi asosida rivojlandi. 1959 yilda qabul qilingan O'zSSR Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish normalari asosan "Jazoni tayinlash va jazodan ozod qilish" deb nomlangan bobga kiritilgan edi ². Mazkur kodeksining 46-modda jinoiy javobgarlikka tortish muhlatlari (давность), 48-modda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, 48¹-modda, jinoiy javobgarlikdan ozod etib ma'muriy javobgarlikka tortish, 49-modda shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, 49¹-modda ishni o'rtoqlik sudiga topshirib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalalari bayon qilingan³.

Qadimgi rus davlatida 1497-yilgi "Sudebnik" huquq manbasida jinoyat ishi yurituvni to'xtatish uchun taraflarning yarashuvi asos qilib ko'rsatilgan. Masalan, 1497-yilgi "Sudebnik" ning 53-moddasiga ko'ra nizoli holatda sudgacha, yoki sud muhokamasidan so'ng yarashuv va sud xodimlariga sarflangan xarajatlar uchun to'lash imkoniyati belgilangan. Bundan tashqari, yarashuv qo'llab bo'lmaydigan jinoyatlar ro'yxati ham ko'rsatib o'tilgan: Bosqinchilik, qotillik, hujjatlarni qalbakilashtirish, chaqimchilik qilish jinoyatlari belgilangan⁴.

Yarashuvda asosan, jinoyat natijasida shaxsga, uning sog'ligiga, hayotiga tiklab bo'lmas zarar yetkazilgan jinoyatlarda emas, asosan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarda yo'l qo'yilgan.

Chor Rossiyasida XX asrning 2-yarmida davrida qishloq va volost sudlari ish ko'rgan bo'lib, nizolarni hal qilishda sudlar odat huquqini qo'llashgan. Ishni

¹ Матвеева Я.М. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. Дисс...кан.юр. наук. -Санкт – Петербург, 2015. -С23

² Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011. -B.80

³ Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari :Diss...yur.fan.doktori.-Toshkent.:2011.-B.81

⁴Матвеева Я.М. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. Дисс...кан.юр. наук. -Санкт – Петербург, 2015.-С.24

hal qilishning asosiy shakllaridan biri, yarashuv jarayoni maburiy elementlarni qamrab olgan yarashuv bo'lgan. Yarashuv bitimlarini o'rganish natijasida ushbu bitimlarning maqsadi xristian diniga xos bo'lgan kechirish emas, balki aybdor tomonidan yetkazilgan zararni qoplash bo'lgan. Chor Rossiyasining 1903-yilgi Nizomga ko'ra, jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish belgilangan. Xususan, ushbu Nizomning 43-moddasiga ko'ra 10 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalar jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish va ularni ota-onalari va maxsus shaxslar kuzatuviga berish, agarda ular tomonidan og'ir jinoyat sodir etilgan bo'lsa maxsus tarbiya muassasalariga, ayollarni monastirlarga topshirish belgilangan. Chor Rossiyasining 1903-yilgi Jinoiy ishlar bo'yicha Nizomining 68-moddasida muddatning o'tishi belgilangan. Agar jinoyat sodir etilgandan so'ng jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar quyidagi muddat o'tgan bo'lsa jazo qo'llanilmasligi ko'zda tutilgan: O'lim jazosi nazarda tutilgan og'ir jinoyatlar uchun – 15 yil, og'ir jinoyatlar uchun – 10 yil, jazo sifatida axloq tuzatish koloniyalariga hukm qilinadigan jinoyatlar uchun – 8 yil, yengil jinoyatlar uchun – 3 yil, nojo'ya xatti-harakat uchun – 1 yil o'tgan bo'lsa; Sovet Ittifoqi davrida “jinoiy javobgarlikdan ozod qilish” tushunchasi birinchi marotaba “Xususiy shaxslarning va jamoat mulkini konfiskatsiya, rekvizitsiya qilish tartibi” to'g'risidagi 1921-yil 17-oktabrdagi Dekretida uchraydi. Ushbu Dekretning 10-moddasiga ko'ra saqlash uchun tegishli ruxsatga ega bo'lmasdan va belgilangan muddatlarda hokimiyatga quyidagi predmetlarni: qurol, portlovchi moddalar, harbiy qurol-aslahalar, uchuvchi moslamalar, telegrafon va radiotelegrafon, bekor qilingan qimmatli qog'ozlar, avtomobil va motosikllarni topshirgan shaxslar javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'ladi, deb belgilangan¹.

Ayrim mualliflar “jinoyat huquqida vujudga kelgan” jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish tizimi jiddiy o'zgarishi mumkinligi haqida fikr bildiradilar. Chunonchi S.Kelina “qonunda nazarda tutilgan boshqa choralarning qo'llanilishi

¹ Матвеева Я.М. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. Дисс...кан.юр. наук. -Санкт – Петербург, 2015. –С.27

jazoning muqarrarligi prinsipiga zid kelmaydi va shaxsga nisbatan biron-bir turdagi majburiy ta'sir chorasini qo'llash bilan uni jinoiy ta'qibdan ozod qilishga yo'l qo'yadi", degan xulosaga kelgan. Bunga sabab shuki, normativ-huquqiy hujjat qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan biror-bir davlat organi muayyan turdagi g'ayriqonuniy qilmishni jinoyat tarkibi belgilari bilan taqqoslashi yoki uni jinoyat emas, deb hisoblashga haqli emas¹.

1959-yilda qabul qilingan O'zSSR JKning 48¹-moddasida esa, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan. Ushbu moddaning dispozitsiyasida shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etib, ma'muriy javobgarlikka tortishning zaruriy elementi qilib jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan, sodir qilgan jinoyat sanksiyasida ko'pi bilan bir yilgacha ozodlikdan mahrum etish va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ta'sir choralari belgilanganligi, shuningdek, aybdorga nisbatan jazo qo'llamasdan turib uning axloqan tuzalishi va qayta tarbiyalanishi mumkin degan xulosaga kelinsa, uni jinoiy javobgarlikka tortmasdan, ma'muriy jazo chorasi qo'llanilishi nazarda tutilgan edi².

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning uchinchi turi sifatida JKning 49-moddasida shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berish nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, yuridik shaxs va undagi mehnat jamoasi dastlabki tergov organlariga yoki sudga iltimosnoma bilan murojaat qilib, ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat sodir qilgan o'z xodimini qayta tarbiyalash va axloqan tuzatish uchun kafillikka olishini bildirar edi.

Shu narsa diqqatni tortadiki, sobiq O'zSSR JKning 49-moddasiga muvofiq, aybdor shaxsni jamoat kafilligiga berish ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning bir turi hisoblanardi. Bu jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyat uchun katta xavf tug'dirmagan hollarda amalga oshirilardi.

¹ Qurbonov D. Insonparvarlik instituti yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini takomillashtirish masalalari. Maqola. <http://huquqburch.uz>

² Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari :Diss...yur.fan.doktori.-Toshkent.: 2011. - B.81

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etishning to'rtinchi turi sobiq O'zSSR JKning 49¹-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unga asosan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, ishi o'rtoqlik sudiga topshirilardi. Bu modda dispozitsiyasi talablari yuqorida bayon etilgan 48, 48¹,49-moddalar talablaridan tubdan farq qiladi.

Mamlakatimizda jazodan ozod etish instituti XX asrning boshlarida doktrial va qonuniy tartibga solingan. 1917-yilgacha jazodan ozod etish instituti turli xil shakllarda turli normativ hujjatlar bilan tartibga solingan. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida 1918-yilgi "Muddatidan oldin jazodan ozod etish" haqidagi qarorida ozodlikdan mahrum qilish jinoyatini o'tashdan muddatidan oldin ozod etish tushunchasi belgilab berilgan¹.

Rossiya qonunchiligida javobgarlikdan va jazodan ozod qilish instituti shartli ravishda uchta davrga bo'lingan:

- 1) Inqilobgacha bo'lgan davr (XVIII asr oxiridan boshlab 1917-yilgi oktabr to'ntarishigacha);
- 2) Sovet davri (1917-yildan XX asr 90-yillarigacha)'
- 3) Post sovet davri.

Sovet davri inqilobiy hukumat tomonidan 1917-yilda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari 1922-yil, 1926-yilda qabul qilingan Jinoyat Kodeksi, SSSR va sobiq Sovet ittifoqi respublikalarining 1958-yildagi jinoyat qonunlari, 1960-yildagi RSFSRning Jinoyat kodeksi bilan alohida ahamiyatga ega. 1960-yildagi RSFSRning jinoyat qonunchiligida ayblov hukmini ijro etish muddati o'tganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (49-modda), jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (50-modda 2-qism), jazoni o'tashdan shartli ozod qilish va jazoni yengilrog'iga almashtirish

¹ Данелян С.В. Освобождение от отбывания наказания в Уголовном законодательстве российской Федерации (теоретические, законодательные и Правоприменительные аспекты). авт. дисс...кан.юр. наук.- Махачкала ,2006.-С.3

(53,55-moddalar), sud hukmini ijro etish keyinga qoldirilgan shaxslar kabi javobgarlikdan va jazodan ozod qilish shakllari mavjud bo'lgan¹.

Sobiq Ittifoq davriga qadar O'zbekiston hududida islom shariati asosida hukm chiqarilgan va javobgarlikdan ozod qilishning asosiy shakli bo'lib yarashuv qo'llanilgan. Sobiq Ittifoq davrida bir necha marta Jinoyat Kodeklari qabul qilinib, O'zbekiston SSSR Ittifoq Jinoyat kodeksi namunasi asosida o'z Jinoyat kodeksini qabul qilingan. Xususan, 1959-yildagi Jinoyat Kodeksida jinoiy javobgarlikka tortish muhlatlari, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, jinoiy javobgarlikdan ozod etib ma'muriy javobgarlikka tortish, shaxsni jamoat tashkilotlariga kafillikka berib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, ishni o'rtoqlik sudiga topshirish kabi javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlari qo'llanilgan.

1.3. Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining xorijiy qonunchilik talablari

Qator xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlili ularda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutiga alohida boblar bag'ishlanganligini ko'rsatadi. Masalan, Ispaniyaning 1995-yilgi Jinoyat kodeksida "jazoni ijro etish boshlangunga qadar jabrlanuvchi tomonidan aybdorni kechirilganligi tufayli jinoiy javobgarlikni bekor qilish" to'g'risidagi norma mavjud. 1997-yilgi Polsha Jinoyat kodeksi 66-moddasida esa "yetkazilgan zarar qoplansa, jinoiy ta'qib shartli ravishda tugatilishi" mumkinligi ko'zda tutilgan².

Janubiy Koreya Respublikasining 1953-yil 18-sentabrda № 293 sonli qonuni bilan qabul qilingan Jinoyat Kodeksining 7-bo'limida hukmi ijro qilish muddatining o'tishi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi berilgan. Unga ko'ra, sud tomonidan aybdor deb topilgan shaxs muddatning o'tishi bilan

¹ Аскеров Э. Институт освобождения от уголовного наказания в уголовном законодательстве зарубежных стран. //Ж. Уголовное право. №4., 2005. -С.9.

² Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberalallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi. -Samarqand. :2008. -B.37

javobgarlikdan ozod qilinishi kerak(77-modda), agar hukm quyidagi muddatlar ichida ijro qilinmagan bo'lsa, quyida keltirilgan muddatlar o'tgan bo'lsa shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi:

- 1) o'lim jazosi tayinlanganidan so'ng o'ttiz yil o'tgan bolsa;
- 2) umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod katorga ishlarga hukm qilingandan so'ng yigirma yil o'tgan bo'lsa;
- 3) katorga ishlarga yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingandan so'ng o'n yillik muddat o'tgan bo'lsa;
- 4) katorga ishlarga yoki uch yildan kam bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish yoki o'n yillik muayyan huquqdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingandan so'ng o'n yillik muddat o'tgan bo'lsa;
- 5) katorga ishlarga yoki uch yildan kam bo'lmagan ozodlikdan mahrum qilish yoki besh yillik muayyan huquqdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingandan so'ng o'n yillik muddat o'tgan bo'lsa;
- 6) besh yillik muayyan huquqdan mahrum qilish jazosiga, jarima, musodara jazosiga hukm qilingandan so'ng uch yillik muddat o'tgan bo'lsa;
- 7) kam miqdordagi jarima jazosi tayinlanganidan so'ng bir yil (78-modda);

Muddatning o'tishiga muddatning uzilishi va jazoni ijro etish to'xtatib turganligi muddati, yoki shartli ozod qilish muddati va jazoni ijro etishning to'xtatilganligining boshqaa muddatlari qo'shib hisoblanmaydi(79-modda).

Janubiy Koreya Respublikasining Jinoyat kodeksining 6-bo'limi muddatidan oldin shartli ozod qilish deb nomlangan:

1) katorga ishlari va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxs, o'zining namunali xulq-atvori, aybiga chin ko'ngildan pushaymonligini ko'rsatsa ma'muriy organ tomonidan uning jazo muddati o'n yilgacha yoki uchdan bir qismigacha qisqartirishi mumkin.

2) agar jazo bilan bir vaqtda jarima yoki kichik jarima tayinlangan bo'lsa, ushbu jarima to'liq to'langan bo'lishi zarur (JK Koreya 72-modda).

Jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish bilan bog‘liq ishlarda:

1. Jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlarga 10 yil muddatini o‘taganlaridan so‘ng, muayyan muddatga hukm qilingan shaxslar esa 10 yildan kam muddatini o‘taganlaridan so‘ng jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilinadi.

2. Jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilingan shaxslar ushbu muddat davomida sinov davrida bo‘lishadi. Ushbu holat ma‘muriy organ tomonidan zaruriyati yo‘q deb topilgan hollar bundan mustasno (Janubiy Koreya Jinoya Kodeksi 74-moddasi)¹.

Janubiy Koreya Respublikasi jinoyat qonunchiligiga ko‘ra javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida faqatgina hukmning ijro etilmaganligi munosabati bilan ozod qilish, jazodan esa muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish kabi turi belgilangan².

Fransiya Respublikasining 1992-yil 1-yanvarda qabul qilingan, 1994-yil 1-martdan kuchga kirgan Jinoyat kodeksining 3-bo‘lim 1-paragraf, 132-59-moddasiga ko‘ra jazodan ozod qilish asoslari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning ijtimoiy qayta moslashuviga erishilganligi, jinoyat natijasida keltirilgan zarar va ziyon qoplangan, jinoyat sodir etgan shaxslar o‘zining jinoiy faoliyatini to‘xtatgan bo‘lsa, shaxs jazodan ozod qilinishi belgilangan.

Fransiya JK 133-1-moddasiga ko‘ra, jismoniy shaxsning vafotidan keyin yoki yuridik shaxsning tugatilgunga qadar, unga jarima summasini va sud xarajatlarini undirish, shuningdek, musodara qilish tarzidagi jazoni qo‘llash mumkin. Sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etish muddati o‘tganligi munosabati bilan jazoni o‘tashdan ozod qilinadi. Shuningdek, rehabilitatsiya qilish ayblov hukmi natijasida kelib chiqadigan oqibatlarni ham bartaraf etadi.

¹ Criminal Act of South Korea. Act No. 293, Sep 18, 1953. <https://www.oecd.org>

² Criminal act of South Korea. Act. No 7623, Jul. 29, 2005. <https://www.oecd.org>

Fransiya JK 133-2-moddasiga ko'ra, jinoyatga nisbatan hukm uzil-kesil tayinlangan bo'lsa, tayinlangan jazo to'liq yigirma yil o'tgandan keyin o'z kuchini yo'qotadi.

Qilmish uchun hukm uzil-kesil tayinlangan bo'lsa, tayinlangan jazo to'liq besh yil o'tgandan keyin o'z kuchini yo'qotadi. Agar jinoyat uchun hukm uzil-kesil tayinlangan bo'lsa, tayinlangan jazo to'liq besh yil o'tgandan keyin o'z kuchini yo'qotadi. Sirtidan hukm qilingan shaxslar, jazoning muddati o'tishi haqida sirtidan hukm ustidan yoki sirtidan chiqarilgan qaror ustidan apellyatsiya tarzida shikoyat qilish huquqiga ega emas. Sudning hukmi natijasida yuzaga kelgan fuqarolik-huquqiy majburiyatning muddat o'tishi masalasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Fransiya Respublikasining Jinoyat kodeksiga ko'ra, jazodan ozod qilishning yana bir turi sifatida avf etish belgilangan. Unga ko'ra, avf etish faqatgina jazoni o'tashdan ozod qilishni anglatadi. Avf etish jabrlanuvchining jinoyat natijasida yetkazilgan zarani uchun kompensatsiya olish huquqidan mahrum qilmaydi.

Shuningdek, amnistiya akti ayblov hukmini bekor qiladi. U jazoni biror yo'l bilan ijro etish imkoniyatini bekor qiladi. Amnistiya jinoyatning bajaruvchisi va uning ishtirokchisi sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etmaslik huquqini beradi. Amnistiya uchinchi shaxslar tomonidan ko'rilgan zararga nisbatan qo'llanilmaydi, -deb belgilangan. (Fransiya JK 133-3-10-moddalari).

Amnistiya orqali jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan belgilangan majburiyatlar, intizomiy va professional pul undirish, huquqdan mahrum qilish kabi jazolar bekor qilinganligi biror bir hujjatda aks ettirish, yoki biror bir shaklda ifodalash ta'qiqlanadi. Ushbu ta'qiq sud hukmi, sud qarorlarining asl nusxalariga nisbatan qo'llanilmaydi. Amnistiya jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashni ijro etishga to'sqinlik qilmaydi.

Fransiya Respublikasining Jinoyat kodeksida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va asoslari belgilanmagan bo'lib, faqatgina jazodan ozod

qilish asoslari belgilangan. Ularga amnistiya, afv, muddat o'tishi munosabati bilan kasallik tufayli jazodan ozod qilish turlari belgilab berilgan¹.

Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan Jinoyat kodeksi IV bo'limi "Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish", 11-bobi "Javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlangan bo'lib, "Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish" 75-moddasiga ko'ra uncha og'ir bo'lmagan yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi "Jabrlanuvchi bilan yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish" deb nomlangan 76-moddasiga ko'ra, uncha og'ir bo'lmagan va o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs jabrlanuvchi bilan yarashganligi, unga yetkazilgan zararni to'la qoplaganligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo'lsa, jinoyat natijasida davlat budjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo'lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi,-deb belgilangan.

Rossiya Federatsiyasining 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan Jinoyat Kodeksining 78-moddasi "Javobgarlikka tortish muddatining o'tishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish" deb belgilangan.

1. Unga ko'ra shaxs jinoyat sodir etgan kundan boshlab quyidagi muddatlar o'tgandan so'ng javobgarlikdan ozod qilinadi:

- a) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgandan so'ng -ikki yil
- b) o'rtacha og'ir jinoyat sodir etgandan so'ng-olti yil;
- c) og'ir jinoyat sodir etgandan so'ng o'n yil;

¹ Penal Code of French. With the participation of John Rason SPENCER QC Professor of Law, University of Cambridge Fellow of Selwyn College. <https://www.legifrance.gouv>

d) o'ta og'ir jinoyat sodir etganda so'ng- o'n besh yil o'tgandan so'ng.

2. Muddatlarning o'tishi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab toki sud hukmi qonuniy kuchga kirgunicha hisoblanadi. Agar shaxs yangi jinoyat sodir etsa har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi.

3. Agar shaxs ushbu muddat davomida tergov va sud organlaridan yashirinsa muddatning o'tishi to'xtatiladi. U ushlangan va aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan paytdan yangilanadi.

4. O'lim jazosiga hukm qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llashda javobgarlikdan ozod qilish masalasini sud tomonidan hal qilinadi¹.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi XII-bobi "Jazodan ozod qilish" deb nomlanib, u o'z ichiga 79-83-moddalarni qamrab oladi. 79-moddada jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish tartibi belgilangan. Harbiy qismda xizmat bo'yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud hukmida tayinlangan shaxslar yetkazilgan zararni to'la yoki qisman qoplagan holatda sud tomonidan jazoni to'la o'tash zaruriyati yo'q, deb topilgan hollarda shaxs to'la yoki qisman jazodan ozod etilishi mumkin. RF JK 80-moddasi "Jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish" deb nomlanib, unga ko'ra, harbiy qismda axloqiy tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan shaxslar, axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarga nisbatan, sud uning xulq-atvorining ijobiy tomonga o'zgarganligi, yetkazilgan zararni qoplaganligini hisobga olib jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin.

RF JK 80¹-moddasi "Sharoit o'zgarganligi tufayli jazodan ozod qilish" deb nomlanib, uncha og'ir bo'lmagan va o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxslar sharoitning o'zgarganligi sababli jazodan ozod qilinadi. Jinoyat ijtimoiy xavfli hisoblanmaydigan holat sharoit o'zgarganligi hisoblanadi. 81-moddada esa "Kasallik tufayli jazodan ozod qilish" belgilangan. Ushbu modda asosida "shaxs o'zining sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik,

¹ Уголовный кодекс Российской Федерации (с изменениями на 8 марта 2015 год). <https://srhr.org>

faktik xususiyatini anglamaydigan, o'z harakatlarini boshqara olmaydigan bo'lsa, ushbu holat doimiy deb topilgan hollarda sud uni jazodan ozod qiladi yoki jazoning o'talmagan qismidan ozod qiladi va zaruriy chora ko'radi. 82-modda "Jazoni ijro etishni keyinga qoldirish" deb nomlangan. Jazoga hukm qilingan homilador ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalalari bor va yolg'iz ona bo'lgan ayollarni, o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etib ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etgan, terrorizm bilan bog'liq jinoyat sodir etgan shaxslardan tashqari sud jazoni o'tashni bolaning o'n to'rt yoshga to'lguniga kechiktirishi mumkin.

RF JK 84-moddasi "Amnistiya" deb nomlanib, unga ko'ra amnistiya Rossiya Federatsiyasining Federal Dumasi tomonidan noaniq guruh individual shaxslar uchun e'lon qilinadi. Amnistiya akti asosida jinoyat sodir etgan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadi. Jinoyat uchun jazoga mahkum qilingan shaxslar jazodan ozod qilinishi yoki tayinlangan jazo qisqartirilishi yoki yengilroq turi bilan almashtirilishi yoki jazoning qo'shimcha turidan ozod qilinishi mumkin. Jazoni o'tagan shaxslar amnistiya akti asosida sudlanganlik olib tashlanishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasining 1997-yil 16-iyulda qabul qilingan Jinoyat kodeksi javobgarlikdan ozod qilishning "Sharoitning o'zgarganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish" (JK 65-moddasi) hamda "Muddatning o'tishi bilan bog'liq javobgarlikdan ozod qilish" (JK 68-moddasi) kabi turlarini ko'rsatadi.

AQSh Namunaviy Jinoyat Kodeksining 4.08-modasida javobgarlikni istisno etadigan ruhiy kasallik va layoqatsizlik holatining huquqiy asosi, qo'riqlash va javobgarlikdan ozod qilish deb nomlangan. Unga ko'ra, sudlanuvchining jinoiy javobgarlikka toritshni istisno etuvchi ruhiy kasalligi va layoqatsizligi holatlarida sud ruhiy gigiyena komissariga uni maxsus muassasaga joylashtirish va davolash to'g'risida ko'rsatma beradi.

Agar ruhiy gigiyena bo'yicha komissar nazoratiga berilgan shaxsning shartli ozod qilish yoki uni nazoratsiz ham xavfsiz ekanligini aniqlasa, bu haqida sud majlisiga iltimosnoma kiritadi. U ushbu iltimosnomaning nusxasini sudlanuvchining sudi o'tkazilayotgan graflikning jinoiy tergov attorneyligiga topshiradi. Shundan keyin sud ikkitadan kam bo'lmagan ruhshunos shifokorni tayinlaydi, ular ushbu shaxsning ruhiy holatini 60 kun yoki bur muncha uzoq muddat davomida kuzatadi. Shundan so'ng sud oldida sudlanuvchining ruhiy holati haqida hisobot beradi. Tergov va jinoiy ishni yuritish maqsadida u sud binosiga yaqin muassasaga joylashtirish chorasini ko'radi. Ruhiy-gigiyena komissari qo'riqlanayotgan shaxsni vaqtincha saqlash, lekin o'zining xatti-harakatlariga javob bermaydigan holatda joylashtiriladigan joyni ko'rsatib beradi.

Agar sud mazkur moddaning 2-qismida ko'rsatilgan tartibda va ruhshunoslarning ko'rsatmalari asosida, ushbu shaxsni shartli ravishda ozod qilish, yoki o'zining va boshqalarning xavfsizligini ta'minlagan holda qo'riqlash lozim bo'lmasa, zaruriy javobgarlikdan ozod qilish yoki qo'riqlashdan ozod qilish haqida xulosaga keladi.

Agar sud bunday xulosaga kelmasa, qisqa muddat ichida ushbu shaxsni javobgarlikdan ozod qilish yoki qo'riqlamasdan ham xavfsizlikni ta'minlash mumkinligini ko'rib chiqish uchun buyruq tayyorlaydi. Bu kabi ishlar istalgan fuqarolik ishida ko'rib chiqilishi mumkin. Ushbu shaxsni shartli ravishda ozod qilish, yoki o'zining va boshqalarning xavfsizligini ta'minlagan holda qo'riqlash lozim bo'lmasa, javobgarlikdan ozod qilish yoki qo'riqlashdan ozod qilish haqida qaror ishni eshitib bo'lingandan so'ng yuqorida ko'rsatilgan jarayon to'la o'tkazilgandan keyin amalga oshiriladi.

Agar sud besh yil ichida shartli ravishda ozod qilingan shaxs tomonidan shartli ozod qilish natijasida belgilangan shartlar o'zining manfaatlari va boshqalarning xavfsizligi ta'minlash asosida bajarilmagan bo'lsa, sud shartli ozod qilish yoki qo'riqlashni bekor qilish bekor qilinadi. Sud tezlik bilan ruhiy

gigiyena komissiariga ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tartibda ishni ko'rib chiqishni belgilashni topshiradi¹.

Biz jinoiy javobgarlikdan ozod etish bugungi kunda jinoyat huquqi uchun zarur bo'lgan institutlardan, deb hisoblovchi mualliflarning fikriga qo'shilamiz. Mazkur holatning huquq tizimi tubdan farq qiluvchi turli davlatlar jinoyat qonunlarida o'zining munosib o'rnini topganligi ham so'zimizni isbotlaydi. Masalan, AQSH Namunaviy Jinoyat kodeksidagi kasalligi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi qoida milliy jinoyat qonunchiligimiz 67-moddasidagi jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalingan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi, degan fikrga mos keladi².

Germaniya Federativ Respublikasi 1998-yil noyabrda qabul qilgan Jinoyat kodeksiga ko'ra Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksi 56-paragrafi jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish deb nomlanib, unga ko'ra 1 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarni hukmda jazo tayinlanishi mahkumni ogohlantirishga xizmat qiladi va u kelgusida jazoga sazovor qilmishni qayta sodir etmasligi mumkin deb hisoblangan holatda sinov asosida jazoni ijro etishni to'xtatishi mumkin.

Ushbu holatda mahkumning shaxsi, uning tarjimai holi, qilmish sodir etilish sharoiti, jinoyat sodir etgandan so'nggi xulq-atvori, turmush sharoiti va oqibatlari, jazodan ozod etilgani sababli undan kutilishi mumkin bo'lgan natijalarni hisobga olishi zarur.

1. Agar shaxsning qilmishi va shaxsi maxsus sharoitda bo'lsa, ikki yildan ortiq bo'lmagan boshqa og'irroq jazo tayinlab, sinov muddati asosida jazoni o'tashdan ozod qilish mumkin. Ushbu holatda mahkum tomonidan

¹ Crimes and criminal procedure code of USA. <https://www.law.cornell>

² Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi. - Samarqand.: 2008. -B.36

qilmishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplaganligi alohida hisobga olinishi zarur.

2. Agar huquqiy tartibni qo'riqlash lozim bo'lsa, ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan ko'proq tayinlangan bo'lsa shartli ozod qilish bekor iqlinmaydi.

3. Jazoni o'tashdan shartli ozod qilish jazoning bir qismini cheklamaydi. Undan oldingi hukm bilan tayinlangan jazo yoki ozodlikdan mahrum qilishning boshqa turini o'tashni istisno etmaydi.

Bundan tashqari Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksi 83-a-paragrafida aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganlik holati ko'rsatib o'tilgan. Shaxs 81, 82-paragraflarda ko'rsatilgan holatlar, ya'ni Federatsiyaga xiyonat (81-paragraf) va Yerga xiyonat (82-paragraf)da ko'rsatilgan holatlarda shaxs ko'ngilli ravishda keyingi faoliyatini davom ettirmagan, boshqa davlatning xavfsizligiga xavf solmayotgan bo'lsa jazon yengillashtirilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkinligi ham belgilab berilgan. Agar shaxs ushbu jinoyatni sodir etishdan ko'ngilli ravishda qaytsa, shuningdek uning ishtirokisiz ushbu jinoyat sodir etilmasa, uning ko'ngilli harakati axloqiy tuzalganligidan dalolat beradi, deb hisoblanadi¹.

¹ German Criminal Code <https://ec.europa.eu>

II BOB. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH ASOSLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

2.1 Javobgarlikdan ozod qilish asoslarining turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi XII bobi "Javobgarlikdan ozod qilishning turlari" deb nomlanib, u o'z ichiga 64-68-moddalarni qamrab olgan. Javobgarlikdan ozod qilishning: javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (JK 64-moddasi), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 65-moddasi), aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 66-moddasi), yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 66¹-moddasi), kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (JK 67-moddasi), amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (JK 68-moddasi) kabi turlari mavjud.

A.S.Yakubovning fikricha, bir qator hollarda aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan ham jinoyatlarning umumiy va maxsus oldini olish maqsadlariga erishish mumkin¹.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikdan ozod etish bir necha asoslarga ko'ra klassifikatsiyalashni nazarda tutuvchi qator konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Bunday asoslar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Diktretsiya (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organi vakolatiga taalluqli bo'lgan) va imperativ (jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organining majburiyati hisoblangan)²;

Diktretsiya javobgarlikdan ozod etish deganda, jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organi vakolatiga taalluqli bo'lgan javobgarlikdan ozod qilishni anglatib, unga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi,

¹ A.S. Yakubov. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 351

² Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi-Samarqand. :2008.-B.43

prokuratura, sud organlari jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun barcha asoslar mavjud deb hisoblasa jinoiy javobgarlikdan ozod qilishi mumkin. Aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi, jabrlanuvchi bilan yarashganligi, sharoitning o'zgarganligiga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, shuningdek, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan majburlov chorasini qo'llash bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JKning 65, 66, 66¹, 87-moddalari) diktretsiya asoslarga misol bo'ladi.

Imperativ turga jinoiy javobgarlikdan ozod etish huquqni muhofaza qilish organining majburiyati hisoblangan holda javobgarlikdan ozod etish. Ularga javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi munosabati bilan, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish, amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (JK 64, 67, 68-moddalari), O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasining 1-qismi bilan, Jinoyat kodeksining Maxsus qismlarida ko'rsatilgan asoslar (155, 192⁹, 248-moddalar) misol bo'ladi.

Berdiyevning fikricha, qonunni qo'llash muqobil qoidaga ega bo'lmagan, yuzaga kelgan jinoyat-huquqiy munosabatlar bilan vakolatli davlat organlari tomonidan, ularning xohish-istagidan qat'iy nazar, so'zsiz qo'llanilishi shart bo'lgan asoslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy (imperativ) normalari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqni qo'llayotgan vakolatli mansabdor shaxs yoki organ normalarni qonunda yoki amnistiya aktida ko'rsatilganidek bajarishi shart¹.

1. Muvaqqat va yakuniy (yoki shartli va shartsiz-jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorni bekor qilish va ishni qayta tiklash imkoniyati mavjudligiga qarab)²;

Muvaqqat jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorni bekor qilish imkoniyati mavjudligi bilan farqlanadi. Jinoyat ishi tugatilganligi to'g'risidagi qaror chiqarilgandan so'ng sudga noma'lum

¹ Sh. Berdiyev. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori -Toshkent.: 2011. - B.116

² Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi. -Samarqand. :2008.-B.43

bo'lgan holatlar ochilganda, prokuror protesti asosida yuqori instansiya quyi instansiya hukmini bekor qilish vakolatiga egadir. Aybдор o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 66-modda) bunga misol bo'ladi. Yakuniy javobgarlikdan ozod qilish asoslari ishni qayta tiklash imkoniyati mavjud emasligini ifodalaydi.

3. Subyektiv (jinoyat sodir etgan shaxs xulq-atvori, xatti-harakatiga bog'liq) va obyektiv (bunday omillarga bog'liq bo'lmagan)¹.

Subyektiv jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etgandan so'ng shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatiga inobatga olgan holda huquqni muhofaza qilish organlari jinoiy javobgarlikdan ozod qilishidir. Obyektiv jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari shaxsning xulq-atvori bilan emas, tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar kabi obyektiv holatlar asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni anglatadi. Berdiyevning ta'kidlashicha, huquqning barcha sohalarida har bir masala yuzasidan qaror chiqarishning o'ziga xos asosi bor, jumladan, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ham Jinoyat kodeksida belgilangan asoslari mavjud².

Shu asosda agar shaxs qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan bo'lsa, uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'lsa, lekin Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lsa ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yakubovning fikricha esa, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning aksariyat turlari shartsizdir. Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo'ladigan protsessual hujjatni qabul qilinishi uzil-kesil hisoblanadi. Zero, Jinoyat kodeksida shaxsning bundan keyingi xatti-harakatlariga hech qanday talab qo'yilmaydi.

Shaxsning kasalligi tufayli javobgarlikdan ozod etilishi bundan mustasno (JK 67-modda), chunki mazkur holat javobgarlikdan ozod bo'lishning shartli

¹ Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss... yur. fan. nomzodi -Samarqand. :2008.-B.43

² Sh. Berdiyev Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.:2011.-B.112

turiga kiradi. Zero, bunday norma shaxsning ozod etilishidan so'ng javobgarlikka tortilishini belgilaydi. Bunday shart mazkur shaxsning sog'ayib qolish holatidir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi Umumiy va Maxsus qismlarida jinoiy javobgarlikdan ozod etishning asoslari hamda shartlari ko'rsatib berilgan. Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish turlarini tasniflash ularning normativ asoslari joylashgan, qonunning qo'llanish ko'rsatmasiga (huquqiy tartibga solish usuliga) qarab, mazmuniga ko'ra va boshqa mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Boshqa bir guruh olimlar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning normativ asoslarini huquqni qo'llash ko'rsatmasiga (huquqiy tartibga solish usuliga) ko'ra, majburiy (imperativ) yoki fakultativ (dispozitiv va diskretsion) turlariga bo'lgan¹.

Sh.Berdiyevning ta'kidlashicha, umumiy normativ asoslar sirasiga O'zbekiston Respublikasi JKning Umumiy qismida aks ettirilgan barcha asoslar, xususan, javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (JK 64-modda), qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 65-modda), aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 66-modda), yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 66¹-modda), amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (JK 68-modda), voyaga yetmagan shaxsni majburlov choralari qo'llagan holda (87-modda) javobgarlikdan ozod qilish kiradi.

Ba'zi mualliflar jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini asosiy va subsidiar turlarga bo'ladilar. Ularning fikricha, asosiy normalarni har qanday

¹ Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.:2011.-B.115

shaxsga nisbatan, subsidiar normalarni esa, muayyan doiradagi shaxslarga, aytaylik, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qo'llash mumkin¹.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini asosiy va qo'shimcha turlarga ajratishda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarning yosh jihatidan inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, jinoyat subyekti yoshiga to'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlardan ozod qilishda aybdorning jinoyatdan keyingi harakatlariga bog'liq. Jinoyat kodeksining 87-moddasida majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish belgilangan bo'lib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin.

Qonunni qo'llash muqobil qoidaga ega bo'lmagan, yuzaga kelgan jinoyat-huquqiy munosabatlar bilan vakolatli davlat organlari tomonidan, ularning xohish-istagidan qat'iy nazar, so'zsiz qo'llanilishi shart bo'lgan asolar jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning majburiy (imperativ) normalari hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, huquqni qo'llayotgan vakolatli mansabdor shaxs yoki organ normalarni qonunda yoki amnistiya aktida ko'rsatilganidek bajarishi shart². Ya'ni, jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish bu sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan tergovchilarning vakolatiga kiradi. Agar ular tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsning sodir etgan qilmishida, yoki u ushlangandan keyingi xati-harakatlarining ijobiy tomonga o'zgargaligi, o'z qilmishidan pushaymonligi, jinoyatni ochishga faol yordan berganligi, yoki muddatlarning o'tishi bilan, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxsning sud va tergovni olib borish vaqtida o'z harakatlarining ahamiyatini

¹ Сверчков В.В. Освобождение от уголовной ответственности, прекращение дела (преследования), отказ в его возбуждении. Проблема теории и практики. Санкт-Петербург.Изд.Р.Асанова. «Юридический центр Пресс» 2008 г. С 61

² Berdiyev. Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011. -B.116

anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish sud va tergovchi tomonidan har tomonlama o'rganilib chiqiladi va o'z vakolati doirasida javobgarlikdan ozod qilish uning huquqidir. Lekin, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilanganidek, Oliy Majlis taqdimnomasiga asosan Prezidentining amnistiya to'g'risida qarori chiqariladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy javobgarlikdan ozod etish asoslari turli turlarga ajratilganligidan kelib chiqib jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni vaqt omili (javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish), shaxs omili (qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish), davlat omili (amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish) qarab turlarga ajratish ham mumkin.

2.2. Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asoslari

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 5-bo'lim, XII bobida javobgarlikdan ozod qilish asoslarining 6 ta turi keltirib o'tilgan. Ularni shaxs va qilmishga bog'liq bo'lgan holatlar asosida turlarga bo'lish mumkin. Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra javobgarlikdan ozod qilish asoslariga javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish (JK 64-moddasi), amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (JK 68-moddasi) kiradi. Javobgarlikdan ozod qilishning aralash turiga qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 65-modda) kiradi. O'z

xususiyatiga ko‘ra qilmish va shaxsga bog‘liq bo‘lgan holatni o‘z ichiga qamrab olganligi sababli ushbu turga kiritish lozim.

Ushbu paragrafda qilmishga bog‘liq bo‘lgan holatlarga ko‘ra va aralash javobgarlikdan ozod qilish asoslarini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 64-moddasiga ko‘ra, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – uch yil;
- b) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – besh yil;
- v) og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o‘n yil;
- g) o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o‘n besh yil o‘tib ketgan bo‘lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Yuridik adabiyotlarda muddat o‘tishining boshlanish vaqtini aniqlash yuzasidan olimlar turli xil holatlarni qayd qilganlar¹.

JKning 64-moddasining birinchi qismini qo‘llashda o‘rinli savol yuzaga keladi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning muddati qachondan boshlab hisoblanadi. Jinoyat sodir etilgan paytdanmi, ayblov hukmi chiqqandan keyinmi yoki majburlov chorasi qo‘llanilgan paytda yuzaga keladi, degan savol paydo bo‘ladi.

Berdiyevning fikricha, jinoiy javobgarlik muddati qat’iy chegaralangan, shuning uchun birinchi navbatda, uni qachon paydo bo‘lishi aniqlash katta ahamiyatga ega.

Kabulovning ta’kidlashicha, qonunda muddatlar o‘tishining ikki turi belgilangan:

- differensial (tabaqalashtirilgan) muddat;
- universal (umumiy) muddat.

¹ Berdiyev .Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011. -B.187

Differensial muddatning o'tib ketishi jinoyatlarning tasnifidan kelib chiqadi. Xususan, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 1-qismiga muvofiq, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- ijtimoiy xavfliligi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – uch yil;
- uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodri etilgan kundan boshlab – besh yil;
- og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o'n yil;
- o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o'n besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.

Universal muddat deb Jinoyat kodeksi 64-moddasining 5-qismida belgilangan qoidalarga ko'ra, agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab 25 yil o'tgan bo'lsa, hatto o'tish muddati to'xtatilgan yoki uzilgan taqdirda ham shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas, deb belgilangan norma kiradi. Universal muddatning mohiyati shundan iboratki, jinoyat sodir etilgan kundan boshlab muddat to'xtatilgan yoki shaxs muddat o'tishi davomida yangi jinoyatlar sodir etilgan kundan boshlab muddat to'xtatilgan yoki shaxs muddat o'tishi davomida yangi jinoyatlar sodir etib kelayotgan taqdirda ham 25 yil o'tganidan keyin uni javobgarlikdan shartsiz ozod qilish lozimligini anglatadi¹. Javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha hisoblanadi.

JKning 64-moddasi 2-qismiga muvofiq, javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kurgunga qadar hisoblanib, unga ko'ra, jinoyat protsesining har qanday bosqichida muddatning o'tishi bilan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Biroq, bu jarayon o'z-o'zicha tarzda emas, balki qonun talablari asosida amalga oshirilib, avvalo qonun talablariga muvofiq bo'lishini taqozo etiladi².

¹ Kabulov R., Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. –T.: O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.361.

² Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.:2011.-B.187

Agar jinoyat sodir etgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o'tishi to'xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o'tishi qaytadan tiklanadi.

Sud va tergov organlardan yashirinish qasddan sodir etilgan, javobgarlikdan bo'yin tovlashga qaratilgan harakat hisoblanadi.

Sud va tergovdan yashiringan shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida jalb qilingan, ushlab turish chorasi qo'llanilishidan berkingan, o'ziga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ma'lum hudud yoki butun davlat hududida qidiruv e'lon qilish shartini yuzaga keltirgan shaxs hisoblanadi¹.

Agar og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o'tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o'tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi.

Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas².

Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

¹ Крепышев А. М. Освобождение от уголовной ответственности в связи с истечением сроков давности. Доклады Башкирского университета. 2017. Том 2. №2 –С.356

² Крепышев А. М. Освобождение от уголовной ответственности в связи с истечением сроков давности. Доклады Башкирского университета. 2017. Том 2. №2 –С.358

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, shaxsga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlar, konstitutsiya tuzumi asoslari va davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish muddatlarining turlarga ajratilishi jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishi ushbu muddat o'tganidan so'ng butunlay ravishda xavfliligini yo'qotmaydi. Lekin, sud-tergov organlarining faoliyatini ortiqcha chigallashtirmaslik, shu bilan birga, sodir etilgan jinoyat qonunda belgilangan muddatlar o'tgandan so'ng jamiyat uchun xavf solmay qo'yishi kabi sabablarni ko'zda tutib qonun chiqaruvchi ushbu muddatlarni belgilaganligi alohida ahamiyatga ega. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish: dastlabki tergov davrida-surishtiruv, tergov organlari va prokurorning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarori; sud majlisini tayinlash bosqichida esa, sudning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi ajrimi bilan tugatiladi¹.

Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish (68-modda) sanaladi. Unga ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, huquqiy tabiatiga ko'ra, jinoyat huquqi institutiga kirmaydi, chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 80-moddasining 10-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasining taqdimiga binoan amnistiya hujjatlarni qabul qiladi².

Amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asoslarining biri bo'lsada, amnistiya akti davlatning o'ziga xos siyosati asosida e'lon qilinadigan hujjatdir. Shu sababli, bu hujjat asosida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishi ushbu hujjatda ko'rsatilgan

¹ Berdiyev. Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.:2011. -B.192

² A.S. Yakubov. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 352

jinoyatlar ro'yxatiga kiritilsa, u majburiy ravishda jinoyat sodir etgan shaxsni ozod qilish to'g'risida qaror chiqarishi lozim.

“Amnistiya” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “unutish”, “kechirish” degan ma'nolarni bildiradi. Amnistiya instituti o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, jinoyat sodir etgan yoki jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatiladigan insonparvarlik va bag'rikenglik namunasidir. Biroq uni reabilitatsiya, ya'ni oqlash tushunchasi bilan chalkashtirmaslik lozim. Amnistiya tushunchasi jinoyat sodir qilgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish, tayinlangan jazoni qisqartirish, tayinlangan jazoni yengilroq'i bilan almashtirish, qo'shimcha jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlashni ifoda etadi¹.

Avf etish, ya'ni amnistiya masalasiga huquqshunoslik fani tarixida turlicha munosabat bildirilgan. Chunonchi, Yevropa falsafa va huquq maktabining yirik vakili I. Bekkariya bu masalani salbiy baholagan. Uning fikricha, “jazo yengillashtirilgan sari jamiyatda shafqat va kechirimli bo'lishga zarurat kamayib boraveradi”. Jazolar jo'yali (to'g'ri tayinlangan), sudning esa adolatli bo'lishi ta'minlanadigan qonun hujjatlarida kechirishga o'rin bo'lmasligi lozim, degan fikrni ilgari surgan. Amnistiyaning huquqiy oqibati jinoiy javobgarlikdan ozod qilishnigina qamrab olmaydi. Amnistiya akti asosida shaxs asosiy va qo'shimcha jazodan ozod qilinishi, jazoning muddati qisqarishi yoki uni yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Qonunni bekor qilmasdan va o'zgartirmasdan oliy hokimiyat organi uni qo'llashni e'lon qilishi mumkin.

Vakolati cheklanmagan qonun chiqaruvchi organ muayyan holat bo'yicha amnistiya aktini qo'llashni maqsadga muvofiqligi, ushbu masalaning asoslanganligi va amnistiya aktini qo'llash shartlari, ularning doirasi va boshqa masalalarni o'rganadi. Qoidaga ko'ra amnistiya aktida kimlarga nisbatan e'lon qilinayotganligi, ularning ro'yxati, kimlarga nisbatan qo'llanilmasligi, vaqt

¹ Sh. Berdiyev // Amnistiya akti uning asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari// Oliy sud axborotnomasi, 2008 yil 1-son. xushnudbek.uz

chegarasi belgilanadi. Qo'llash tartibi (vakolatli organning majburiyatlari, amnistiyaning amalga oshirilishini ta'minlovchi organ va amalga oshirish jarayoni, reglamenti maxsus qaror orqali tartibga solinadi va qo'shimcha ravishda amnistiya akti qabul qilinadi¹.

Amnistiya aktini qabul qilishni bir qancha xususiyatiga ko'ra ajratish mumkin:

-siyosiy jihatdan (siyosiy o'zgarishlar sababli mahkumlarni ozod qilish, inqilobdan keyin muxoliflar bilan yarashish maqsadida e'lon qilish);

- iqtisodiy jihatdan (o'tmishdagi jinoyati uchun huquqiy makonga qaytarish, masalan, soliqqa oid jinoyatlar yuzasidan amnistiya qabul qilish);

- ijtimoiy jihatdan (fuqarolar tinchligini va bitimini qayta tiklash, milliy yarashuv, ayollar va voyaga yetmaganlarni kechirish)

- yubiley va alohida muhim hodisalar bilan bog'liq (Konstitutsiya kuniga bag'ishlab)².

Shuningdek, ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilganda ham shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. R. Kabulovning fikricha, Jinoyat Kodeskining javobgarlikdan ozod qilishning ikki turi nazarda tutilgan, ya'ni: 1) sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilganligi (JK 64-m.1-q); 2) jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilganligi (JK 64-m.2-q.)

Qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qolganligi sababli javobgarlikdan ozod qilish asoslariga quyidagilar kiradi: 1) sharoitning o'zgarganligi; 2) qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qotilganligi. Chunki, JKning 65-moddasi 2-qismga ajratilgan bo'lib, birinchi qismida qilmishning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi ko'rsatilgan bo'lsa, 2-qismida shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi holati javobgarlikdan

¹ Балафендиев А.М.// Социально-правовое назначение института амнистии. Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 1, Право. - Казань.: С.169

² Балафендиев А.М.// Социально-правовое назначение института амнистии. Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 1, Право. - Казань.: С.169

ozod qilish uchun asos qilib belgilangan. Kabulovning fikricha, sharoitning o'zgarishi deganda, obyektiv voqelikda sodir etilgan jinoyatning yangi ijtimoiy sharoitda ijtimoiy xavfliligini yo'qotishiga olib kelgan o'zgarish tushuniladi¹.

Ushbu holatni quyidagicha tavsiflash mumkin. Ya'ni, shaxs sodir etgan qilmish shaxsning ruhiy holatiga bog'liq bo'lmagan, shaxsning ijobiy xulq-atvori tomonga o'zgarishi kabi jinoyat sodir etgandan keyingina xulq-atvoriga aloqasi bo'lmagan holda, ijtimoiy sharoit o'zgarganligi tufayli qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotadi. Masalan, JKda belgilangan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish (132-modda) jinoyatini sodir etdi. Ushbu moddaning dispozitsiyasida "Davlat muhofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa", – deb belgilangan. Vaqt o'tishi bilan, ijtimoiy sharoit o'zgarishi bilan ushbu madaniy yodgorlik davlat muhofazasidan chiqariladi. Jinoyat ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotadi.

Mongoliya Jinoyat kodeksi 74-moddasiga ko'ra "Kam ahamiyatli va kichikroq jinoyat sodir etgan shaxs sharoitning o'zgarishi tufayli shaxs yoki uning sodir etgan jinoyati ijtimoiy xavfli bo'lmay qolgan bo'lsa, sud tomonidan javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangan².

2.3. Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish

Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslariga aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 66-modda), yarashilganligi

¹ Kabulov R., Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.362.

² Кузнецов А. В., Сун Ингчун. // О некоторых вопросах уголовно-правовой регламентации изменения обстановки в России, Монголии и Китае. Вестник Омской юридической академии. 2013. № 2 (21).-С.124

munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 66¹-modda), kasallik tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 67-modda) kabi turlari kiradi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning ushbu asoslari shaxs, uning jinoyat sodir etgandan keying xulq-atvori, jismoniy va ruhiy ahvoliga bog'liq ravishda bo'lganligi sababli sud tomonidan javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi sababli javobgarlikdan ozod qilishni belgilaydi. Ularning birinchisi aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish (JK 66-modda) hisoblanadi. Ushbu moddada ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkinligi belgilangan.

Jinoiy javobgarlikdan aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning, sudning tergov harakatlarini o'tkazishda, aybdorning tergov harakatini amalga oshirishdagi faol ishtiroki, ya'ni uning aldamasligi, haqiqatdan ham sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatning ochishda haqiqiy yordam ko'rsatishi inobatga olinishi lozim. Lekin, bu huquqni muhofaza qiluvchi organlaridan xolisona baho berish, shu asosda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni talab etadi ¹. Chunki, aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lmaganligi, jinoyatni ochishda chin ko'ngildan yordam ko'rsatmasligi, jinoyat uchun jazoga sazovorligini his qilmasligiga olib keladi. Bu esa jamiyatda takror jinoyatni sodir etishga yo'l ochib berishi mumkin.

Chin ko'ngildan pushaymon bo'lish deganda, shaxsning jinoyat sodir etganidan so'ng o'z aybiga iqrar bo'lib, jinoyatni ochishga va keltirilgan zararni bartaraf qilib, jinoyatning ochilishiga yordam beradigan faol xatti-harakatni tushunish lozim. "Aybini bo'yniga olish" jinoyatni sodir etgan shaxsning o'z

¹ Qurbonov D. Insonparvarlik instituti yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini takomillashtirish masalalari. Maqola. <http://huquqburch.uz>

jinoiy qilmishidan so'ng hokimiyat idoralariga yoxud rasmiy shaxslarga o'z ixtiyori bilan murojaat qilib, sodir etgan jinoyati haqida to'g'ri xabar yetkazish va qonunda belgilangan javobgarlik choralari o'tashga tayyor ekanligini bildiradi.

S.G. Kelingan ta'kidlashicha, har qanday u yoki bu tarzda rivojlangan jinoyat huquqida davlatning o'z jinoiy tergov va jazoga sazovor bo'lgan deb hisoblangan jinoyat sodir etishga nisbatan munosabati mavjud bo'ladi¹.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishda qonun chiqaruvchi tomonidan javobgarlikni yengillashtiruvchi ikki xil jihatni nazarda tutadi: birinchidan, u jinoyat huquqiga xos bo'lgan element bo'lib, ikkinchidan, ayblanuvchi bilan yarashishni o'z ichiga oluvchi, axloqiy-psixologik element- aybiga haqiqatdan toza qalb bilan pushaymonlikni ifodalaydi².

Aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish institutini optimallashtirish va faollashtirish maqsadida quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish lozim:

1) adolat tamoyillarini ta'minlagan holda repressiyani kamaytirish; 2) jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash; 3) jinoyat sodir etgan shaxsning manfaatlarini himoya qilish; 4) ijtimoiy xavfli qilmishning oqibatlarini oldini olish, kamaytirish, ogohlantirishga xizmat qiladi³.

Aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lishda jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat sodir etgandan so'ng ijobiy xulq-atvorini ko'rsatadi, o'zining va boshqa shaxslarning huquqlarini buzamaydi va chegaralamaydi. Aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lish kabi normlarning qo'llanilishida ijobiy jinoiy javobgarlik ta'minlanadi va amalga oshiriladi. Uning natijasida jinoiy javobgarlikdan ozod

¹ Свешникова Ю.С. Деятельное раскаяние в российском уголовном праве. Магистерская диссертация.- Красноярск.: 2017.-С.24

² Стадник М.А. //Нормы о деятельном раскаянии в истории российского уголовного законодательства и законодательстве зарубежных стран. Вестник. Казанского юридического института МВД России № 2(24) 2016.: -С.123

³ Стадник М.А. Деятельное раскаяние как институт освобождения от уголовной ответственности. Авт.дисс...кан. юр. наук. - Санкт-Петербург 2017. -С.19

qilish yoki jazoning yengillashtirilishi kabi ijobiy oqibatlar kelib chiqadi. Ushbu belgilar aybiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi asosida javobgarlikdan ozod qilishning yuridik tabiatini ochib beradi.

Jinoyatni ochishga faol yordam berish deganda, aybdorning o'z aybiga chin ko'ngildan iqrор bo'lishi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga sodir etilgan jinoyatning barcha jihatlari va holatlarini aniqlashga yordam berishi tushuniladi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning keyingi turi yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish (JK 66¹-modda) sanaladi.

Bugungi kunda jinoyat qonunchiligida yarashuv institutining joriy etilishi jinoyat qonunini liberallashtirish siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Umuman, o'zida insonparvarlik tamoyilini aks ettiruvchi mazkur institut, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxs bilan jabrlanuvchining o'zaro kelishuvi davlatchiligimiz tarixida keng qo'llanilgan. Bunda jinoyat sodir etgan shaxs jabrdiydaga tovon to'lagani uchun jabr ko'rgan taraf uni kechirib, qozidan aybdorni jazodan ozod qilishni talab etishga haqli bo'lgan. Jumladan, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida tovon haqi jazo sifatida qo'llanilganda aybdor uni uch yil mobaynida to'lashi lozimligi ko'rsatiladi. Shu jihatdan olib qaraganda, yarashuv munosabati bilan jinoyat ishining tugatilishi milliy qadriyatlarimizga to'la mos, deb ishonch bilan aytish mumkin¹.

Ch. Bekkaria yarashuv instituti haqida fikr bildirib, bir tomondan jabrlanuvchining ayblanuvchini kam ahamiyatli jinoyati uchun rahmdillik va insonparvarlik prinsiplari asosida kechirishini ko'rsatib o'tgan bo'lsa, boshqa tomondan esa jamiyatning ezgulik manfaatlariga qarama-qarshiligini ta'kidlaydi.

I.Bentamning fikricha, sodir qilingan jinoyat oqibatida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni bartaraf etishda og'ir jinoyat uchun unga teng miqdordagi

¹ Qurbonov D. Insonparvarlik instituti yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini takomillashtirish masalalari. Maqola. <http://huquqburch.uz>

mukofot berilishi, taqdirlash shart bo'lgan holatlarda jazoning tayinlanishi asossiz hisoblanadi. Jamiyat va undagi normal hayot tarzining davom etishi uchun insonlarning kechirimlilik xislatlarning davom etishi zarurdir. Jabrlanuvchi va aybdorning o'zaro kelishishi, bundan keyingi bo'ladigan ziddiyatlarning oldini olish uchun yarashuv institutining amaliyotga joriy etilishi juda ham zarurdir.

Yarashuv deganda jinoyat sodir qilgan shaxsning jabrlanuvchi bilan jinoyat ishini tinch yo'l bilan hal qilish haqida ixtiyoriy ravishda o'zaro kelishuvi tushuniladi. Bunda asosan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining u yoki bu usulda to'la qoplanganligi kabi muhim va majburiy subyektiv holat hisoblanadi¹.

Bizningcha, yarashuv bu qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan jinoyatlar uchun jabrlanuvchiga aybdor tomonidan yetkazilgan zarar qoplangan holdagina, jabrlanuvchining ixtiyoriy xohishi bilan aybdor bilan o'zaro bitimidir. Chunki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga ko'ra, yarashuv to'g'risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkin.

Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart. Yarashuv asosida javobgarlikdan ozod qilishning obyektiv tomoni shundan iboratki, bir tomondan uncha og'ir bo'lmagan va ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat sodir etilgan bo'lishi, ikkinchi tomondan, aybdorning jabrlanuvchi bilan yarashishi hisoblanadi. Yarashuv jabrlanuvchi va aybdorning o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatishini ko'zlamaydi. Yarashuv uchun tergov yoki sud organlariga aybdorning

¹ Berdiyev Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari :Diss...yur.fan.doktori.-Toshkent.:2011.-B.214

javobgarlikka tortmaslik to'g'risidagi arizasi mavjudligi kifoya qiladi. Jabrlanuvchining maqsadi turlicha bo'lishi mumkin: yetkazilgan zararni qoplanganligi, aybdorning og'ir ahvoli yoki uning oilasining ahvoliga achinganligi, aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymonligi kabi holatlar yuzasidan bo'lishi mumkin. Agar aybdor tomonidan jabrlanuvchiga jismoniy, ruhiy jihatdan tahdidlar bo'lib, jabrlanuvchining aybdorning javobgarlikdan ozod qilinishi to'g'risida ariza taqdim etilishiga majburlanagn bo'lsa javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas¹.

Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda tergov organi yoki sud organlari jinoyatning sodir etilish sharoiti, sifatlovchi belgilari, aybdorning shaxsi, o'z aybiga pushaymonligi yoki pushaymon emasligi, jabrlanuvchining yarashuv motiv-maqsadini hisobga olish zarur. Lekin ushbu shartlar hukm qabul qilishda javobgarlikdan ozod qilishni rad etish uchun asosiy omil bo'lmasligi ham mumkin. Chunki, qonun ma'lum bir sharoitning mavjud bo'lishini talab qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi 2002-yil 25-oktabrda qabul qilingan Oliy Sudi Plenumining "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti" Qarorining 2-bandida "Sudlar shuni nazarda tutishlari kerakki, yarashuv to'g'risidagi arizaning shakli, mazmuni va uni taqdim etish tartibiga nisbatan qonunda muayyan talablar qo'yilgan.

Yarashuv to'g'risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda jinoyta natijasida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi (yoki jabrlanuvchining zarardan voz kechganligi) va yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Jabrlanuvchi bilan ayni bir vaqtning o'zida ishda fuqaroviy da'vogar ham qatnashgan hollarda yarashuv to'g'risida ish yuritishni boshlash uchun ham jabrlanuvchi, ham fuqaroviy da'vogar tomonidan tegishli ariza berilgan bo'lishi shart. Ish bo'yicha bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va bir necha

¹ Сундурова Ф.Р., Тарханова И.А. Уголовное право России. Общая часть. Учебник. Москва: 2014. Казанский Государственный Университет имени В.И. Ульянова-Ленина. Электрон вариант.

jabrlanuvchi bo'lgan holler uchun ham xuddi shunday talablar belgilangan. Jabrlanuvchilarning hatto birortasidan tegishli ariza bo'lmagan hollarda ham yarashuv to'g'risida ish yuritish mumkin emas. Bunday holda jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi", -deb belgilangan.

Ushbu qarorning beshinchi bandida "Yarashuv to'g'risidagi qonun normalari qo'llanilishining tezkorligini ta'minlash va kafolatlash gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) ning huquqlarini muhofaza etish maqsadida yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha qaror chiqarish va sudga yuborish uchun qonunda o'n sutkalik muddat belgilangan.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning yana bir turi kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish (67-modda) sanaladi. Jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chora lari qo'llanilishi mumkin.

Bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan tuzalsa, javobgarlikka tortiladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan kundan hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolgan shaxsning ishi bo'yicha, shuningdek ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxsning ishi bo'yicha shaxsning bundan keyingi xatti-harakati o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkinmi-yo'qmi ekanligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanishiga zarurat bor yoki yo'qligini va qanday choralari qo'llash lozimligini hal qilish uchun asos bo'ladigan holatlar ham isbotlanishi lozim.

Ushbu modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda sud JKning 92-moddasiga binoan, shaxsning ruhiy holati va sodir etgan

qilmishining xususiyatiga ko'ra, jamiyat uchun xavfli deb topsa, sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash mumkinligi nazarda tutilgan.

AQSHning jinoyat qonunchiliga ko'ra ruhiy sog'liqni saqlash aktida qayd etilgan biror bir kasallikdan aziyat chekish tashxisi qo'yilgan shaxslarga tibbiy davolash chorasi qo'llash buyuriladi. Mantiqan va axloqan, kasal deb topilgan shaxslar tibbiy davolashga jo'natiladi va jazodan ozod qilinadi. Shunga qaramay ushbu aktda begilangan kasallikka chalingan shaxslarni jarima va axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilish ta'qiqlaydigan 1959-yilda qabul qilingan ruhiy sog'liqni saqlash akti sudyaning tibbiy majburlov chorasini qo'llash yoki kuzatuvga olish chorasi o'rniga qamoq chorasini qo'llashni cheklamaydi¹.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 67-moddasida nazarda tutilgan shartlarni tahlil qilsak, ular ikkiga ajraladi, "Jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar: 1) O'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan; 2) O'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Ushbu holatda sudya O'zbekiston Respublikasi JPK 567-moddasi asosida sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlaydi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 577-moddasiga asosan sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga asosan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risida sud ajrimi chiqaradi.

¹ Barbara Wootton. Crime and The Criminal Law. The Hamlyn Lectures. London.: 1981.P.-89

III BOB. JAZODAN OZOD QILISH ASOSLARINING NAZARIY- HUQUQIY JIHATLARI

3.1. Jazodan ozod qilish asoslarining turlari va ularni qo'llashning huquqiy asoslari

Zamonaviy jinoyatchilik bilan qarshi kurash bir tomondan jazoning muqarrarligi prinsipiga, boshqa tomondan esa insonparvarlik va repressiyaning kamaytirilishi prinsiplariga asoslanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun, jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilish katta o'rin egallaydi. Uni amaliyotga joriy etish jinoyat-huquqiy institutlarning samaradorligi bilan bog'liqdir. Xususan, jinoyat qonunchiligida ushbu institutning joyi va xarakteri, definitiv-normativ aspekti, amaliyotda qo'llash qiyinchiliklari muhim o'rin tutadi¹.

Jazodan ozod qilish uni ijro etishning mumkin bo'lmashligi (masalan, sudlangan shaxsning kasalligi, uning mehnatga layoqatidan mahrum bo'lishi, jazoni ijro etish muddatining o'tib ketishi) yoki maqsadga muvofiq emasligi (masalan, sudlangan shaxsning chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi) bilan belgilab beriladi².

Jazodan ozod qilish asoslari o'zining mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi o'zgarishlar va jinoyat sodir etgan shaxsning xulq-atvorida yuz bergan ijobiy o'zgarishlar sababli yuzaga keladigan asoslarga bo'linadi.

M.Rustamboyevning fikricha, qonun sudga, agar shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolgan bo'lsa yoki uncha katta bo'lmagan ijtimoiy xavfi bo'lsa, shaxsga nisbatan jazoni qo'llamaslik yoki uni jazo o'tashdan ozod qilish va keyinchalik boshqa huquqiy ta'sir choralarini qo'llashga imkon beradi va bunday holda ushbu shaxsning jinoiy javobgarligi qisman amalga oshiriladi, lekin bu jinoyatchilik bilan jinoiy-huquqiy kurashni ta'minlash uchun yetarli bo'ladi³.

¹ Данелян С.В. Освобождение от отбывания наказания в Уголовном законодательстве российской Федерации (теоретические, законодательные и Правоприменительные аспекты). авт. дисс...кан.юр. наук. - Махачкала, 2006. - С.3

² Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO",2011.-Б.177

³ Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO",2011.-Б.177

Agar shaxsning jinoyatiga nisbatan hukm chiqarilib, jazo tayinlansa-yu, sudlanuvchining, mahkumning holatini uni shu jazoni o'tamasdan turib ham uni tarbiyalash maqsadiga erishish mumkin deb hisoblasa ushbu jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin. Jazo tayinlanishining o'zi bu jinoyat sodir etgan shaxs uchun ogohlantiruvchi vazifani bajaradi.

Jazodan ozod qilish faqat sud tomonidan amalga oshiriladi, chunki shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish va unga jazo tayinlash sudning mutlaq vakolatidir.

Jazodan ozod qilishning turlari JK "Jazodan ozod qilishning turlari" nomli XIII bobida tartibga solingan. Ularga quyidagilar kiradi: jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-moddasi) jazoni yengilrog'i bilan almshtirish (JK 74-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi);

A.P. Boxannning fikriga ko'ra jazodan ozod qilishni ikki asosda turlarga bo'lish mumkin:

1) sudlanuvchiga tayinlangan jazoni real va to'liq o'tamay turib ham uni axloqan tuzatish mumkin bo'lgan holatlar (RFJKning 79-80¹, 82-83 moddalari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, kasallik tufayli jazodan ozod qilish, ayblovluk hukmini ijro etish muddati o'tib ketganligi tufayli jazodan ozod qilish, jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish boshqa og'ir kasallik tufayli jazodan ozod qilish, homilador va yosh bolali ayollarni jazoni o'tashini keyinga qoldirish; narkomaniya kasalligi tufayli jazodan ozod qilishni keyinga qoldirish;

2) jazodan ozod qilish obyektiv sabablarga ko'ra mahkumni axloqan tuzatish mumkin bo'lmagan holatlar (RFJKning 81-moddasi) kasallik tufayli jazodan ozod qilish)¹.

Kishilar jamiyatda faol hayot kechirar ekan, ushbu jamiyatda hamisha tabiiy va sun'iy omillar ta'sirida turli xil kasallikka chalingan, o'z qilmishining ahamiyatini anglay olmaydigan, yoxud jinoyat sodir qilgandan so'ng shunday holatga tushgan insonlar mavjud.

Jinoyat sodir etgan shaxsni jazodan ozod qilishni o'zida aks ettirgan barcha jinoyat-huquqiy normalar mahkumning axloqan tuzalishi bilan bog'liq. Shaxsni axloqan tuzalishi uning jinoyat sodir etgandan keying ijobiy xulq-atvori bilan izohlanadi. Bunday holatlarda uning qonunga itoatkorligi, shaxsga, jamiyatga, davlatga hurmat bilan munosabatda bo'lishi inobatga olinadi. Jazodan ozod qilish asoslarining nomlanishi har xil bo'lsa-da, ularning maqsadi shaxsning sudlanganlik holatini salqagan holda to'liq yoki qisman ozodlikdan mahrum qilish va muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan ozod qilishdir.

Yuqoridagi sanalgan jazodan ozod qilish asoslarining jinoyat sodir etgan shaxsni jazodan ozod qilish sudning huquqi yoki majburiyatining mavjudligi bilan farqlanadi. Shu sababli, jazodan ozod qilish asoslarini ikki turga, majburiy, jazodan ozod qilish sudning majburiyati hisoblanadigan, ikkinchisi, fakultativ, sud jazodan ozod qilish sudning majburiyati emas huquqi hisoblanadi. Majburiy turiga, "to'liq jazodan ozod qilish" kiradi. Ularga, a) jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (mahkumni axloqan tuzatishga jazoni to'liq o'tamay turib erishish mumkin) b) kasallik tufayli jazodan ozod qilish; v) ayblov hukmini ijro etish muddati o'tib ketgan bo'lsa.

Jazodan ozod qilishning fakultativ asoslariga qolgan barcha asoslar kiradi. Ularning asosiy xususiyati "jazoni o'tashdan ozod qilish" hisoblanadi. Ularga, a) jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish; b) boshqa og'ir kasallik tufayli jazodan ozod qilish; v) homilador va yosh bolali ayollarni

¹ Бохан А.П., Хачатрян С.С. Классификация видов и оснований освобождения от наказания// Юрист-Правовед. - Москва, 2014. -№. - С.59.

jazoni o'tashini keyinga qoldirish; g) narkomaniya kasalligi tufayli jazodan ozod qilishni keyinga qoldirish;

Jazodan ozod qilishning majburiy turida sudya mahkumni ozod qilishi uning majburiyatiga kiradi. Chunki, unda obyektiv sabablarga ko'ra (jazoning muayyan qismini o'taganlik, kasallik natijasida, hukmni ijro etish muddati o'tib ketganligi) mahkumni jazodan ozod qiladi.

Fakultativ asoslarga ko'ra, sudya mahkumni jazodan ozod qilishi uning majburiyati emas, huquqi hisoblanadi. Mahkumning holatini hisobga olgan holda jazodan ozod qilishi mumkin.

Bundan tashqari jazodan ozod qilish asoslarini shartli va shartsiz turlarga bo'linadi. Shartli turiga sudlanuvchining keyingi xulq-atvoriga bog'liq ravishda tayinlangan hukmni bekor qilish mumkinligi yoki mumkin emasligiga ko'ra farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeskining 72-moddasining 6-qismida "Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin", deb jazodan ozod qilishning orqaga qaytishi mumkinligi belgilangan. Jazodan ozod qilishning qolgan barcha turi mahkumning xulq-atvoridan qat'iy nazar orqaga qaytish kuchiga ega emasligiga asosan shartsiz hisoblanadi.

Jazodan ozod qilishni turlarga ajratish uning huquqi tabiatini, mavjud jinoiy-huquqiy belgilarini, ijtimoiy jihatdan tayinlanish xususiyatlarini kompleks qayta ko'rib chiqish uchun zarur. Bundan tashqari, jazodan ozod qilish institutining qo'llanilishi jinoiy repressiyani iqtisod qilish, insonparvarlik va adolat prinsiplarini qo'llash, har bir jinoyat uchun jazoning muqarrarliligi prinsipi

bo‘lishiga qaramay jazo qo‘llash maqsadga muvofiq emasligidan kelib chiqib qo‘llaniladi¹.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida jazodan ozod qilishning asosiy turiga, mahkum jazoning muayyan qismini o‘tamasdan jazodan ozod qilish asoslari kiradi. Ularga jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi).

Qo‘shimcha jazodan ozod qilish turlariga mahkum jazoni o‘tashni boshlaydi, tayinlangan jazoning bir qismini o‘tagandan so‘ng, muayyan shartlar asosida jazodan ozod qilinadi. Ularga, jazoni o‘tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-moddasi) jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (JK 74-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi) kiradi.

M.X.Rustamboyevning fikricha, jazodan ozod qilishning ushbu turlari shartli yoki shartsiz tarzda bo‘lishi mumkin. Jazodan ozod qilishning shartli turlariga shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-moddasi) va kasallik oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi 1-3-qismlari) kiradi. Jazodan ozod qilishning qolgan turlari shartsiz, ya’ni yakuniy bo‘ladi, chunki ularni qo‘llash jazodan ozod qilinuvchi rioya qilinmaganligi ularni bekor qilish uchun asos bo‘la oladigan biror-bir majburiyat yuklamaydi.

Jazodan ozod qilishning shartli ekanligi JK 72-moddasining 6-qismida, “Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma’muriy yoki intizomiy ta’sir chorasi qo‘llanilgan bo‘lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga

¹ Бохан А.П., Хачатрян С.С. Классификация видов и оснований освобождения от наказания// Юрист-Правовед. -Москва, 2014. - №- С.59-61.

binoan jazoning shartliligini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin", deb jazodan ozod qilishning ushbu turini shartliligini belgilagan. Ya'ni, mahkum unga sud tomonidan yuklatilgan biror bir majburiyatni bajarishdan bosh tortishi sinov muddatining bekor qilinishi va hukmda belgilangan jazoning o'tashi kerakligi belgilangan. Sud tomonidan belgilanadigan majburiyatlarni ijro etish shart sifatida qaraladi. Ushbu jazodan ozod qilish turi yakuniy bo'lmay, mahkumning keying xulq-atvoriga qarab orqaga qaytish kuchiga egadir.

JK 73-moddasi 5-qismida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi. Shart sifatida jazoning o'talmagan qismi mobaynida yangi jinoyat sodir etmaslik belgilangan. Agar ushbu shart buzilsa, jazodan ozod qilishning ushbu asosi orqaga qaytadi, bekor qilinadi.

JK ning 75-modda 1-,3-qismida "Shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim.

Bunday shaxslar tuzalganidan keyin, ushbu Kodeksning 69-moddasida nazarda tutilgan va sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan kundan boshlab hisoblanadigan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi. Jazodan ozod etishning ushbu turida shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinishi, shartning buzilishi shaxsning tuzalishi va muddat o'tmaganligi etib belgilangan.

Jazodan ozod qilishning qolgan turlari: jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish

(JK 70-moddasi); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (74-modda), amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (75-modda) yakuniy hisoblanadi. Ya'ni, ushbu asoslar dispozitsiyasida jazodan ozod qilishni bekor qiluvchi keyingi asoslar belgilanmagan.

M.H.Rustamboyevning fikriga ko'ra, jazodan ozod qilishni, shuningdek, to'liq, qisman va aralash deb atalmish jazodan ozod qilish turlariga bo'lish mumkin. Jazodan to'liq ozod qilishga jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi) tarzida jazodan ozod qilishlar kiradi. Jazodan to'liq ozod qilishda tayinlangan jazo sud qaroriga ko'ra ijro etilmaydi¹.

Jazodan to'liq ozod qilishda sud hukmida belgilangan jazoni o'tashga mahkum kirishmaydi. Hukmda tayinlangan jazoning u yoki bu qismini o'tashdan ozod qilinishini emas, balki mahkumning bu jazoning biror bir qismini ham o'tash nazarda tutilmasligi ko'zda tutiladi.

Jazodan qisman ozod qilish uni o'tash davrida jazodan ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirishda ifodalanadi. Jazodan ozod qilishning ushbu turlari toifasiga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-moddasi); jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (74-moddasi)².

Qisman jazodan ozod qilishda mahkum hukmda belgilangan jazoni o'tashga kirishadi, uning ma'lum qismini o'taydi. Jazoning muayyan qismini o'taganidan so'ng, bu muddat davomida xulqining ijobiy tomonga o'zgarganligi, jamoat ishlarida faol ishtiroki va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda sud unga tayinlangan jazoning o'talmagan qismini o'tashdan ozod qiladi

¹ Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO",2011.-Б.178

² Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO",2011.-Б.178

(JK 73-moddasi), shuningdek, bir turdagi jazoni Jinoyat kodeksida belgilangan jazo tizimida yuqoriroqda turgan yengilroq jazo bilan almashtiradi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoni ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo bilan almashtiradi.

Va nihoyat, jazodan ozod qilishning aralash turi to'liq va qisman jazodan ozod qilishni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, ularga kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi) kiradi¹.

Bundan tashqari jazodan ozod qilishning umumiy asoslari subyektiv, obyektiv, aralash turlarga ham bo'linadi.

Jazodan ozod qilishning subyektiv turlariga shaxsning jinoyat sodir etagndan keyingi ijobiy xatti-harakati, namunali xulqi, mehnatga va o'qishga halol munosabati, jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarganligi, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, jinoyatning ochilihsiga faol yoradm beragn va keltirilgan zararni qoplaganligi kabi holatlarni, ya'ni shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishni nazarda tutadi. Ularga Jinoyat Kodeksida belgilangan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (JK 70-modda), aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-modda), shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-moddasi) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-moddasi) asoslari kiradi.

Bir shart bilan ikkinchi shartning yig'indisi jazodan ozod qilish asoslarining obyektiv tomonini tashkil qiladi. Subyektiv va obyektiv shartlar sud tomonidan qaror qabul qilish uchun ahamiyatlidir. Ushbu shartlar: a) keltirilgan zararning qoplanganligi b) zarar yetkazishning majburiyligi d) og'ir sharoit natijasida sodir etganligi e) aybdor o'z aybiga chin ko'ngildan pushaymonligi f) hukmi ijro etish muddati o'tganligi h) jazoni muddatidan oldin bekor qilinish

¹ Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO", 2011.-Б.178.

(almashtirilishi) i) jamoat ta'sir chorasi z) o'quv-tarbiyaviy chora j) tibbiy chora k) shartli hukm qilish chorasi¹.

Jazodan ozod qilishning obyektiv asoslari tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladi. Ularga jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi) asoslari misol bo'ladi. Aralash turi obyektiv va subyektiv omillar o'z ichiga olib, obyektiv, jamiyatdagi o'zgarish amnistiya akti qabul qilinganligi bo'lsa, subyektiv afv etish shaxsning muayyan jazo muddati o'taganligi va ijobiy xulq-atvori tufayli jazodan ozod qilinganligi sababli amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi) jazodan ozod qilishning aralash turiga kiradi.

3.2. Qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish asoslari

Jazodan ozod qilish turlariga ta'rif berib, shaxsga va qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish kabi turlarga ajratishni lozim topdik.

Qilmishga bog'liq holatlarga ko'ra jazodan ozod qilish jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (69-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi) asoslari kiradi.

Shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-moddasi) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish

¹ Сверчков В.В. Основания освобождения от уголовной ответственности и (или) наказания: Система, законодат. регламентация, эффективность применения. авт. дисс...кан.юр. наук. - Нижний Новгород, 1997. -С.17.

(JK 75-moddasi); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi).

O'zbekiston Respublikasining JK 69-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, jazo hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab qonunda belgilangan tegishli muddatlarda ijro etilmagan bo'lsa, ayblov hukmi ijro etilmaydi.

Ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganidan so'ng muayyan vaqt o'tganidan so'ng tayinlangan jazoni ijro etish xususiy hamda umumiy prevensiya nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Agar ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganidan so'ng qonunda ko'rsatilgan muddat o'tgan va shu muddat mobaynida sudlanuvchi jazoni o'tashdan bo'yin tovlamagan va yangi jinoyat sodir etmagan bo'lsa, bunda shaxs ijtimoiy xavfli hisoblanmaydi. Shu sababli unga nisbatan ayblov hukmini ijro etish javobgarlikka tortish muddati instituti va jazoning maqsadlariga zid bo'lar edi¹.

Sud tomonidan chiqarilgan ayblov hukmi u yoki bu sabab bilan ijro etilmagan, shu muddat mobaynida mahkum o'zining munosib xulq-atvorda bo'lga bo'lsa, ya'ni yangi jinoyat sodir etmagan, jazoni o'tashdan bo'yin tovlamagan bo'lsa jazodan ozod qilinishi Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipiga to'la mos keladi.

Jinoyatchi shaxsiga "vaqtning ta'siri" ham noaniq kategoriya bo'lib, vaqt bir voqea, hodisa, faktning boshqasidan ajratib turuvchi o'lchov birligi hisoblanadi. U jinoyatchiga hech qanday ta'sir qilmaydi. Faqatgina ma'lum bir vaqt mobaynida shaxs xatti-harakatlarining o'zgarishi haqida gapirish mumkin, biroq bu o'zgarishlar vaqt bilan emas, balki boshqa shart-sharoitlar va asosan, shaxsning haqiqatga bo'lgan subyektiv munosabati bilan bog'liqdir².

¹ Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.: 2010. -B.99

² Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur.fan.nomzodi.-Toshkent.:2010.-B.99.

Jazodan ozod qilish ma'lum bir vaqt o'tdi, shaxsning sodir etgan jinoyati jamiyatning, atrofdagilarning yodidan chiqdi emas, shu shaxsning qonunlarni hurmat qilishi, axloqan o'zgarganligiga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining JK 69-moddasida jazoni ijro etish muddati o'tishining boshlang'ich nuqtasi sifatida hukm chiqarilgan kun emas, balki uning qonuniy kuchga kirgan kun tan olinadi. Ushbu o'zgarish shubhasiz, to'g'ri bo'ldi, chunki, hukm qonuniy kuchga kirgandan keyingina jazo ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasining JK 29-moddasida "Birinchi instansiya sudi jinoyat ishi bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarish huquqiga ega. Apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukmlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo'yicha ishlarni ko'rib, ajrim chiqaradi", deb belgilangan. Demak, birinchi instansiya hukmlari appellatsiya berish muddatlari o'tganidan keyin kuchga kiradi.

Jazoga tortish muddatlari to'liq ijro etilmagan hukmga va hukmning ijro etilmagan qismiga nisbatan ham qo'llaniladi¹.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 69-moddasi hukm qonuniy kuchga kirib, jazoni ijro etishga kirishilmagan va muayyan sabablarga ko'ra jazoning bir qismini o'tab, qolgan qismini o'talmagan hukmlarga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 69-moddasida nazarda tutilgan jazoni ijro etish muddatlari asosiy va qo'shimcha jazolarga bog'liq bo'ladi. Ayrim mualliflar qonunda ko'rsatilgan muddatlarning o'tishi bilan ayblov hukmining asosiy va qo'shimcha jazoga oid qismi to'liq ijro etilmaydi, deb hisoblaydilar. Bizning nazarimizda bu fikr asoslidir. Agar mahkum unga sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosidan jazoni ijro etish muddati tugamasdan ozod qilinsa, hukmning qo'shimcha jazo chorasiga oid qismini ijro

¹ Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.:2010. -B.105.

etish javobgarlikka tortish muddati institutining asoslariga zid va maqsadga nomuvofiq bo‘ladi¹.

Ayblov hukmini ijro etish muddatlari hukm qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran uzluksiz tarzda o‘tib boradi. Biroq, mahkum jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlasa yoki muddatlar o‘tguniga qadar qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddat o‘tishi uziladi. Bu shuni anglatadiki, mahkum jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan yoki muddatlarning o‘tishiga qadar qasddan yangi jinoyat sodir etilgan vaqtdan qaytadan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining JK 69-moddasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ozodlikdan mahrum qilish joyidan qochish jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlashning bir turi bo‘lsada, jazoni ijro etish muddatlarini uzuvchi yangi jinoyat hisoblanadi. Shu sababli hukm chiqarilgandan so‘ng 25 yil muddatning o‘tishi bilan uning ijro etilmasligi to‘g‘risidagi qoida jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlash maqsadida qochgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi².

Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash har xil shaklda, turar joyida bo‘lmaslik, davlat hududidan noqonuniy ravishda chiqib ketish, ism-sharifini o‘zgartirish, davlat organlariga noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etish, aldash kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, jazo o‘tashdan bo‘yin tovlagan shaxslar hukm qonuniy kuchga kirgandan so‘ng yigirma besh yil o‘tsa, jazo bekor bo‘ladi, degan fikrga bormasligi lozim. Ushbu muddatlarning o‘tishi faqatgina muayyan sabablarga ko‘ra hukm ijro etilmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi JK 69-moddasi beshinchi qismida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilish jazosiga hukm qilingan shaxsga nisbatan muddatlar o‘tishini qo‘llash sud tomonidan hal qilinishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining JKga ko‘ra umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish

¹ Niyazova Sh.G. Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.:2010. - B.105

² Niyazova Sh.G. Muddatlarning o‘tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.: 2010. -B.113

(JK 97-modda) va terrorizm (JK 155-modda 3-q) jinoyatlari uchun nazarda tutilgan¹.

Demak, muddatlarning o'tganligi sababli jazodan ozod qilish faqatgina o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, sud lozim deb topgan holatlardagina qo'llaniladi. Agar O'zbekiston Respublikasi JKning 69-moddasining 1-qismi "g" bandida nazarda tutilgan muddat o'n besh yil o'tmagan bo'lsa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijro etilishi lozim. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarning jazodan ozod etishni hal qilish asoslari qonunda ko'rsatilmagan. Lekin, shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi sud tomonidan baholanadi va sud ushbu shaxsni jazodan ozod qilish lozim yoki lozim emasligini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi JK 69-moddasi beshinchi qismiga ko'ra sud muddatlar o'tishini qo'llamagan bo'lsa umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o'tishini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini jinoyat qonuni tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirish sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab amalga oshiriladi, deyish mumkin.

Shu o'rinda, shaxsning xulq-atvorining ijobiy tomonga o'zgarganligi, qilmishidan pushaymon bo'lganligi, qasddan yangi jinoyat sodir etmaganligi, sud-tergov organlaridan yashirinib yurmaganligi holatlarini inobatga olgan holda sud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tegishli modda sanksiyasida ko'rsatilgan ozodlikdan mahrum qilish jazoga almashtirishi mumkin.

¹ Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. -Toshkent.: 2010. -B.117

Ushbu moddaning 6-qismida “Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyati uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi”, deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksida ham “Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar” deb nomlanuvchi bob mavjud bo‘lib, unda xalqaro huquq normalarida o‘rnatilgan tartib-qoidalar muhofaza qilingan. Ularga, JKning urushni targ‘ib qilish, agressiya, urushning qonun va udumlarini buzish, genotsid, yollanish, chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, polisiya, harbiy adliya organlari yoki shunga o‘xshash boshqa organlariga xizmatga kirish, yollanish, terrorizm, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish, terrorizmdan moliyalashtirish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atish kabi jinoyatlarni o‘z ichiga olgan.

Qilmishga bog‘liq bo‘lgan holatlarga ko‘ra jazodan ozod qilishning keyingi turi amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-modda) hisoblanadi.

Shaxsga nisbatan jazo chorasini qo‘llash uzoq faoliyat bo‘lib, u o‘z ichiga jazo tayinlash, ijro etish va tugatish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Jinoyatchilikka qarshi kurash jinoyat huquqiy ta’sir chorasi har bir jinoiy ish bo‘yicha ratsionallik va natijaviylik, javobgarlik va jazoda har bir shaxsning individualligi, jinoyatchilik bilan qarshi kurashda insonparvarlik prinsipi qo‘llashni ham nazarda tutadi¹.

QAYTARILGANKU, OLDIN HAM YOZGANSIZ XUDDI SHU AMNISTIYA BO‘YICHA GAPLARNI

Amnistiya akti huquq tizimida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan institut hisoblanadi. “Amnistiya” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “unutish”, “kechirish” degan ma’nolarni bildiradi. Amnistiya instituti o‘z mazmun-

¹ Мирзажонов К. Теория и практика амнистии и помилования: проблемы и решения. Дисс...док. юр. наук. -Ташкент.: 1995. -С.15

mohiyatiga ko'ra, jinoyat sodir etgan yoki jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko'rsatiladigan insonparvarlik va bag'rikenglik namunasidir. Biroq uni rehabilitatsiya, ya'ni oqlash tushunchasi bilan chalkashtirmaslik lozim.

Amnistiya tushunchasi javobgarlikdan va jazodan ozod qilish uchun ham asos bo'ladi. Mazmuniga ko'ra jinoyat sodir etgan shaxsni davlat tomonidan ommaviy kechirilishini ifoda etadi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasida rehabilitatsiya uchun asoslar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ularga 1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa; 2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa 3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa; kabi asoslari kiradi. Rehabilitatsiya uchun asoslar asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilingan shaxs bevosita jinoyat sodir etmaganligi isbotlanadi. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan va jazodan ozod qilingan shaxslar jinoyat sodir etishda aybdor yoki aybdor emas degan masala ochiqlicha qoladi.

Amnistiya tushunchasi jinoyat sodir qilgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish, tayinlangan jazoni qisqartirish, tayinlangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, qo'shimcha jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlashni ifoda etadi¹.

O'zbekiston Respublikasi JKning 76-moddasining 1-qismida belgilanishicha hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilishning mohiyati jazning o'talishi yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi mumkin bo'lgan va istisno etuvchi holatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu institutning mavjudligi mahkumning axloqan tuzalishi, jinoiy repressiyaning iqtisod qilish va insonparvarlik prinsipi

¹ Berdiyev SH. Amnistiya akti uning asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari // Oliy sud axborotnomasi.-Toshkent,2008. -№1. -B.1.

asosida shaxsni resotsializatsiya, ya'ni, jamiyatga qayta moslashtirish uchun zarur hisoblanadi¹.

Amnistiya tushunchasini quyidagi elementlarga bo'lish mumkin:

1. Bu davlat hokimiyatining alohida huquqi hisoblandi.
2. Amnistiya jinoyat uchun javobgarlik va jazoni o'zgartirmaydi yoki bekor qilmaydi; ma'lum bir shaxsga nisbatan chiqarilgan sud hukmini noqonuniy va asoslanmagan deb e'lon qilib, bekor qilmaydi. Uning maqsadi jinoyat sodir etgan ma'lum bir kishilar guruhini yengillashtirish (jazodan ozod qilish, jazoning o'talmagan qismidan ozod qilish kabi), hisoblanib, bu jinoyatchilikka qarshi kurash vazifasiga zid kelmaydi.

3. Amnistiya qonuniylik va muddatidan oldin ozod qilishning asoslanganligi talabidan kelib chiqib qo'llaniladi va doimo aniq va asosli shartlar va qo'llanish chegarasi belgilangan bo'ladi(amnistiya aktida amnistiya akti doirasiga tushuvchi shaxslarning belgilari ro'yxati beriladi)².

Jinoyat-protsessual qonunning 536¹-moddasiga ko'ra "mahkumni amnistiya aktiga asosan jazodan ozod qilish tartibi" belgilangan bo'lib, mahkumni amnistiya aktiga asosan asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish prokurorning iltimosnomasiga binoan mahkumning jazoni o'tash joyidagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, okrug, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Afv etish asosida jazodan ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatiga kiradi. Sud hukmi bilan jinoiy jazoga hukm qilingan shaxsni afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod

¹ Данелян С.В. Освобождение от отбывания наказания в уголовном законодательстве Российской Федерации (теоретические, законодательные и правоприменительные аспекты). Авт. дисс...кан.юр. наук. - Махачкала, 2006. - С.11.

² Мирзажонов К. Теория и практика амнистии и помилования: проблемы и решения. Дисс...док. юр. наук. -Ташкент.: 1995. - С.50

qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Shuningdek, afv etish asosida asosiy jazodan ozod qilish bilan birga qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi, sudlanganligi olib tashlanishi mumkin. Amnistiya akti chiqquncha sodir etilgan, surishtiruv, tergov va ishni sudda ko'rish hukmi qonuniy kuchga kirguncha hibsda saqlangan hamda jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan qo'llansa (amnistiya aktida ko'rsatilgan shaxslar doirasiga), afv etish esa faqat hukm qonuniy kuchga kirganidan keyingina qo'llanilishi mumkin¹.

Afv etish davlatning huquqi bo'lib, jinoyat sodir etgan va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar jazoning qonunda belgilangan qismini o'taganidan so'ng uni kechirilishidir. Afv etish asosida jazodan ozod qilish, asosiy jazolar va qo'shimcha jazolardan ham ozod qilinishi mumkin.

Yuridik harakatda shunday tushuncha borki, afv etish davlat organlariga iltimosnoma taqdim etish bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, iltimosnoma davlat organlariga murojaat bo'lib, u natijani kafolatlamaydi. Afv etish to'g'risida qaror qabul qilinishi ham mumkin, qabul qilinmasligi ham mumkin. Ikkinchidan, iltimosnoma bu bir arizaning shakli bo'lib qonuniy kuchga ega emasdir².

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma, sudlangan shaxsning o'zi tomonidan beriladi. Ushbu hujjatda mahkumning o'z jinoyatiga nisbatan munosabati, kelajakdagi rejalari, aybiga chin ko'ngildan pushaymonligi, mahkum chuqur qayg'urayotganligi holatlari yoritiladi. Davlat organlariga yuborayotgan iltimosnoma mahkumning huquqqa qarshi bundan keyin jinoyat qilmasligi uchun rag'batlantiruvchi, distipliniar harakat ekanligini bayon etadi.

¹ Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: «Yangi asr avlodi», 2005, 662b

² Мирзажонов К. Теория и практика амнистии и помилования: проблемы и решения. Дисс...док. юр. наук. -Ташкент.: 1995. -С.68

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o'n besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

3.3. Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning asoslari

Shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning asoslari shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-moddasi) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi) kiradi.

Shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish Jinoyat kodeksining 70-moddasida jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy

xavfliligini yo‘qotdi deb e‘tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkinligi belgilangan.

Ushbu qoida Jinoyat kodeksining 65-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish turlaridan farqli rav ishda, ishni sudda ko‘rilayotgan vaqtda sharoitning o‘zgarganligi yoki jinoyat sodir etgan shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabati bilan o‘zini ko‘rsatganlligi bilan shartlanadi¹.

Ushbu moddaga asoslanib jazodan ozod qilish uchun ikkita shart bajarilishi lozim. Birinchisi, ishni sudda ko‘rilayotgan vaqtda sharoitning o‘zgarganligi bo‘lsa, ikkinchisi jinoyat sodir etgan shaxsning xulqi namunali tarafga o‘zgarganligi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabatda bo‘layotganligi isbotlanishi zarur.

Shaxsning jinoyat sodir etganidan keyingi xulqi, agar u qonun normalarida belgilangan barcha ko‘rsatmalarga va jamiyatda yurish-turish borasidagi umumiy qoidalarga rioya etsa, nuqsonsiz hisoblanishi lozim. Mehnatga va ta‘limga vijdonan munosabatda bo‘lishiga shaxsning asosiy ish yoki o‘qish joyida uning zimmasiga yuklatilgan funksional vazifalarni aniq, tashabbus ko‘rsatib va samarali bajarishi xosdir².

Jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat sodir etganidan so‘ng axloq normalariga itoat etishi, o‘qish va ish joyidagi vazifalarini bo‘yin tovlamasdan, bekamu-ko‘st darajada bajara boshlashi uning xulqi namunali tarafga o‘zgara boshlaganidan dalolat beradi. Shu sababli, shaxs o‘z xulqi ustidan nazoratni qo‘lga kiritgan ekan, jamiyatga foydasi tegishi mumkin. Jinoyat sodir etgan shaxsga imkon berilishi kelajakda yaxshi tomonga o‘zgarishi uchun turtki vazifasini bajarishi mumkin.

Shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning birinchi sharti “ishni sudda ko‘rilayotgan vaqtda sharoitning

¹ Kabulov R., Otajonov A. A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.373.

² Kabulov R., Otajonov A. A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O‘zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.372.

o'zgarganligi" dir. Albatta, sharoitning o'zgarganligi holatiga ko'plab nuqtayi nazardan yondashish mumkin. Sharoitning o'zgarganligi haqida gap ketganda sodir bo'layotgan voqeaning o'zgarganligi tushuniladi. Ushbu o'zgarishning sababi turlicha bo'lishi mumkin: bir shaxsning shaxsiy hayoti o'zgarganligidan tortib, butun jamiyatning hayoti o'zgarishigacha bo'lishi mumkin. Yuqoridagi holatlarda faktik jihatdan qanday o'zgarishni nazarda tutilganligi noaniq qoladi.

Alohida sudlarda jinoyat huquqi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning o'zgarganligi, qilmishni dekriminalizatsiya qiladi deb qaror qabul qilishadi. Shu narsaga qo'shilish mumkinki, voqeadagi qilmishni yagona dekriminalizatsiya qiluvchi narsa, qilmishni jinoyat ekanligini bekor qiluvchi qonun qabul qilinishi, lekin u hali kuchga kirmaganligidir. Ushbu holatdagina shaxs sodir etgan qilmishi sharoit o'zgarganligi tufayli ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb jazodan ozod qilinishi mumkin¹.

Bunga misol sifatida, O'zbekiston Respublikasi JKning 132-moddasi "Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish" deb nomlanib, ushbu moddaning 1-qism dispozitsiyasida "davlat muhofazasiga olingan tarix yoki madaniyat yodgorliklarini qasddan nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lishi belgilangan. Qonun chiqaruvchi ma'lum bir binoni madaniyat yodgorligi ro'yxatidan chiqardi. Lekin, ushbu hujjat qabul qilinguniga qadar S. ismli shaxs tomonidan ushbu madaniyat yodgorligiga ziyon yetkazilgan edi. Sharoit o'zgarganligi tufayli S. ismli shaxs jazodan ozod qilinishi mumkin.

Jazodan ozod qilishning keyingi turi JK 71-moddasi aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish hisoblanadi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'irbo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz

¹ Костылева О.В. Освобождение от наказания в связи с изменением обстановки: современные тенденции правоприменения// Библиотека криминалиста. Научный журнал. Москва, 2013. -№ 2. -С.284.

qilgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.

JK 71-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish, qo'llanish asoslari va shartlari bo'yicha, 66-moddada nazarda tutilgan aybdorining o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan uni javobgarlikdan ozod qilish bilan o'zaro mos keladi. Asosiy farq ularni qo'llash mumkin bo'lishi uchun yetarli bo'lgan shartlarning hajmida namoyon bo'ladi. Shaxsni Jinoyat Kodeksining 66-moddasida belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi; yetkazilgan zararni bartaraf qilishi; jinoyatni ochilishiga faol yordam berishi zarur.

Jinoyat kodeksining 71-moddasida nazarda tutilgan jazodan ozod qilishni qo'llashda esa atigi ikki holat, ya'ni o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish va yetkazilgan zararni bartaraf qilish kifoyadir¹.

Shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatni ochilishiga faol yordam berilishi sharti mavjud bo'lsa, jazodan ozod qilishda esa bu shart nazarda tutilmagan. Sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsning sud jarayonida o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish va yetkazilgan zararni bartaraf qilishi e'tiborga olinadi.

Boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok qilgan yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a'zosi bo'lgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam bergan bo'lsa, basharti u og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo'lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatni ochishda jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat izlarini yashirishga urinishlari, ularni aldash, chalg'itish, tergov ishlarini boshqa yo'nalishga burib yuborishga harakat qiladigan

¹ Yakubov A. S. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 369

shaxslarning qilmishlari tufayli uzoq vaqt mobaynida adashib yurishlari, hatto, jinoyat ishi boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Shu tufayli ishtirokchilikda jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat sodir etishga boshqa xohish-istagi yo'qligi, jinoyatni ochilishi, oldini olishda faol yordam berishi, tashkilotning boshqa a'zolarini fosh etishi xulqining ijobiy tarafga o'zgarganligidan dalolat beradi va rag'batlantiruvchi vosita sifatida jazodan ozod qilinadi.

JK 71-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish asoslarini qo'llash uchun eng avval aybdor shaxs boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyatni sodir etishda ishtirok qilganligini (ya'ni, jinoiy sherik bo'lganligi yoki rollarini taqsimlagan holda sherikchilik mavjud bo'lganligini), uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zosi bo'lganligini aniqlash lozim¹.

JK 71-moddasi 2-qismining shartlari sifatida:

- 1) aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilganligi;
- 2) chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi;
- 3) jinoyatning oldini olish;
- 4) jinoyatni ochish;
- 5) jinoyat tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam berganligi;
- 6) basharti u og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmaganligi;

Jinoyatning oldini olishda yordam ko'rsatish shaxs tomonidan axborot berilishini yoki uning ham bevosita ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishining oldini olishga, ham uni sodir etishining jinoiy oqibatlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan muayyan harakatlarini sodir etishdan iborat.

Ishtirokchilikda sodir etilgan yoki sodir etilishi rejalashtirilayotgan jinoyat haqida guruh a'zosi jinoyat sodir etilishidan oldin yoki sodir etilganidan so'ng guruh a'zolarining shaxsi, jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli, tashkilotchilari, bajaruvchilari, zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar haqida to'liq va

¹ Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том.-Т.: "ILM ZIYO",2011.-Б.187

to'g'ri ma'lumot berishi berishi jinoyatni oldini olishga ko'maklashishi sifatida hisoblanishi mumkin.

Jinoyatni ochishda yordam ko'rsatish shaxsning dastlabki tergov organlariga va sudga ish bo'yicha dalil-isbotlarni yig'ish va baholashda faol yordam ko'rsatishidan iborat (sodir etilgan jinoyatning qurollari va vositalari, jinoyat izlari va hokazolar). Jinoyat sodir etilganidan so'ng jinoyat izlari, qurollari, predmeti haqida dalillarni topish, ularni to'liq va bevosita huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo'lga kiritilishini ta'minlashda yordam berish jinoyatni ochishda yordam berish tarzida baholanishi mumkin. Jinoyatning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam berish ushbu jinoyatni kim tashkil etganligi haqidagi axborotni berish, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini fosh qilish va topishga yordam berish va hokazolardan iborat¹.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishda esa shaxs ilgari ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni ishtirokchilikda sodir etganidan keyin yuqoridagi shartlar asosida faollik ko'rsatishi shaxsni ilgari sodir etgan jinoyatlari uchun jazodan ozod qilish mumkinligini anglatadi².

Shartli hukm qilishda shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga jazolaridan biri tayinlanib, lekin uni o'tamasligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat Kodeksi XIII bobi "Jazodan ozod qilishning turlari" deb nomlanib, 72-moddasida shartli hukm qilish asoslari yoritib berilgan. Unga ko'ra "Agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarni tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tomonidan tayinlangan jazoni

¹ Рустамбаев М.Х. Жиноят ҳуқуқи. II том. -Т.: "ILM ZIYO", 2011. -Б.187

² Kabulov R., Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012. -B.374.

o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartliligni bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi", deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra shartli hukm qilish "jazodan ozod qilish"ning turi hisoblandi. Lekin, Rossiya Federasiyasi Jinoyat kodeksida jazo tayinlash bobining tarkibida ko'rsatilgan.

Shartli hukm qilish jazodan ozod qilishning bir turi sifatida qarash noto'g'ri tushuncha hisoblanadi. Isbot sifatida bir nechta argumentlarni keltirish mumkin:

Birinchidan, qonunchilik shartli hukm qilishni sud tomonidan tayinlanadigan jazolar qatoriga kiritgan. Ikkinchidan, sud shartli hukm qilayotgan vaqtda sudlanuvchi o'zining axloqan tuzalganligini isbotlashi uchun sinov muddati belgilaydi. Uchinchidan, shartli hukm qilish vaqtida sud sudlanuvchiga muayyan majburiyatlarni yuklaydi.

Jazodan ozod qilishning keyingi turi sifatida shartli hukm qilish (JK 72-moddasi) hisoblanadi. Shartli hukm qilish Jinoyat kodeksining 72-moddasida belgilangan. Shartli hukm qilish shaxsga jazo tayinlab, uni real ijro etmagan holda sud qilishni anglatadi. Shartli hukm qilishda mahkumga aniq jazo tayinlanadi va sinov muddati belgilanadi hamda sinov muddati davomida sinov shartlarini buzgan holatda tayinlangan real jazoni ijro etish sharti yuklatiladi¹.

Jazodan ozod qilishning aralash turlariga shartli hukm qilish (JK 72-modda), jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-modda) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-modda) kiradi. Chunki, jazodan ozod qilishning ush bu turlari ham shaxsga bog'liq hamda qilmishga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilinadi.

¹ Kabulov R., Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.374.

Sudya JK 72-moddasi bilan hukm qilishda ushbu modda 1-qismida ko'rsatilgan jazolardan biri o'rniga 1 yildan uch yilga qadar sinov muddati tayinlaydi va muayyan majburiyatlarni yuklaydi. Yuqoridagi Plenum Qarorining 35-bandida "JK 72-moddasining oltinchi qismiga muvofiq, agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud tomonidan unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa, sud bunday shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartliligini bekor qilib, hukmda belgilangan jazoni ijro etish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Shu bilan birga, sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyati va muayyan holatlarni, mahkumning shaxsi va sinov muddati davomidagi xulq-atvoriga doir ma'lumotlarni hisobga olib, sud shartli hukmni aslicha qoldirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Mahkum ushbu qoidaga muvofiq sinov muddati davomida sud tomonidan unga yuklatilgan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarsa, sinov muddati muvaffaqiyatli o'tadi. Agarda yuklatilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, hukmda belgilangan jazo masalan, ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash jazolarini o'tash lozim bo'ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ishi yakunida O'zbekiston Respublikasida jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslari, ularning farqli jihatlari ilmiy va amaliy jihatdan tatdiq etildi hamda mavzuga daxldor masalalarning ilmiy yechimini topishga qaratilgan taklif va mulohazalar ishlab chiqildi:

I. Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish bo'yicha takliflar:

1. Hozirgi kunda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilish tushunchasiga Jinoyat kodeksida aniq ta'rif berilmagan. Ushbu ikki tushunchaga quyidagicha ta'rif ishlab chiqildi:

***Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish* – sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishni rad etishdan iborat hujjati. Jazodan ozod qilish- sud tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsni ushbu jinoyatni sodir etishda aybi isbotlangan holda, hukmda jazo tayinlangan holda tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish haqidagi hujjatidir.**

2. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni vaqt omili (javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish, qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish), shaxs omili (qilmish yoki shaxs ijtmoy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish, yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish), davlat omili (amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish) qarab turlarga ajratish mumkin.

II. Jinoyat qonunchiligini amaliyotga qo'llashga oid takliflar:

1. Jinoiy javobgarlik asoslarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun majburiy va ularning vakolatiga taalluqli ekanligi qonun normasida belgilab qo'yilishi lozimligi asoslab bergan.

2. Sud lozim topgan taqdirda, jazodan ozod qilingan shaxslarni sudlanganlik holatini belgilamaslik vakolatini berish lozim.

III. Jinoyat Kodeksini takomillashtirish yuzasidan takliflar

1. Jinoyat kodeksining “javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish 64-moddasi 1-qismi a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan kundan boshlab –uch yil jumlasini **“a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan kundan boshlab –ikki yil”** jumlasini bilan almashtirilishi lozimligini, ushbu muddat MDH davlatlarining deyarli ko‘pchiligida ikki yil ekanligini asoslangan.

2. Jinoyat kodeksining “javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish 64-moddasi 6-qismi “Ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish masalasini sud tomonidan hal qilinadi”. Ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish masalasini sud tomonidan ***shaxsning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori, jinoyatchining shaxsni inobatga olgan*** holda hal qilinadi” mazmunidagi jumlaning kiritish taklifi etiladi.

3. JK 66¹-moddasi 3-qismi quyidagi mazmundagi jumlar bilan to‘ldirish taklifi etiladi:

“Iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo‘lsa, jinoyat natijasida davlat budjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo‘lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi”.

4. Quyidagi mazmundagi **66²-modda.**“Kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish” modda to‘ldirilishi tavsiya etiladi:

66²-modda.“***Kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish***”

Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, basharti jinoyat natijasida jabrlanuvchining

sog'lig'iga og'ir shikast yetkazilishi yoki uning o'limiga olib kelmagan bo'lsa, ushbu Kodeks maxsus qismining tegishli moddasi yoki qismi sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolar nazarda tutilgan bo'lsa sud tomonidan kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Kafillik jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmish uchun nazarda tutilgan jarima jazosi eng yuqori miqdorining ikki baravari, yuridik shaxslar tomonidan o'n baravariga teng qiymatdagi garovni ta'minlashda ifodalanadi.

Kafillik quyidagi muddatlarga tuziladi:

1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilganda – olti oydan bir yilgacha;

2) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilganda – bir yildan ikki yilgacha;

Kafillik qo'llangan shaxs kafillik muddati mobaynida yangi jinoyat sodir etmasa kafilga garov predmeti qaytariladi.

Kafillik qo'llangan shaxs kafillik muddati mobaynida yangi jinoyat sodir etsa sud kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni bekor qiladi hamda jinoyat sodir etgan shaxsga bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanadi. Bunda garov predmeti davlat foydasiga undiriladi.

Kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish korrupsiya, terrorizm, ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, shuningdek jinoiy guruh yoki uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan shaxsga hamda voyaga etmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir shaxsga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

5. JK 68-moddasi quyidagi tahrirda bayon etilishi tavsiya etiladi:

68-modda. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish

Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida, shuningdek jazodan ozod qilinishi yoki unga nisbatan tayinlangan jazo miqdori va muddatining qisqartirilishi yoxud boshqa turdagi yengilroq jazo chorasi qo'llanilishi, xuddi shuningdek qo'shimcha jazodan ozod qilinishi mumkin. Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muddati va miqdori qisqartirilishi mumkin emas. Jazoni o'tagan yoki uni o'tashdan ozod qilingan shaxsning sudlanganligi amnistiya akti asosida olib tashlanishi mumkin emas.

Amnistiya akti asosida voyaga etmaganlarning jinsiy daxslizligiga qarshi, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan jinoyat sodir etgan shaxslar bundan mustasno, terrorizm jinoyatlarini sodir etgan, shuningdek retsidiv va o'ta xavfli retsidiv jinoyatlar uchun jazo tayinlangan shaxslar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

6. JK XIII bobida "Jazodan ozod qilish" turi sifatida belgilangan "shartli hukm qilish" JK 72-moddasida jazodan ozod qilishning bir turi emas, balki jazo tayinlashning bir turi sifatida qaralib, JK XI bobi "Jazo tayinlash" bobiga ko'chirilishi lozim. Sud shartli hukm qilayotgan vaqtda sudlanuvchi o'zining axloqan tuzalganligini isbotlashi uchun sinov muddati belgilaydi. Bundan tashqari, shartli hukm qilish vaqtida sud sudlanuvchiga muayyan majburiyatlarni yuklaydi.

7. Jinoyat qonunini liberallashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblangan jazodan va javobgarlikdan ozod qilishni JK Maxsus qismining boshqa moddalariga, jumladan, JK 210-moddasi, 214-modda (1-qismida ko'rsatilgan qilmishni sodir etgan shaxslarga nisbatan)larga ham kiritish lozim.

8. 238-moddasining 1-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi tavsiya etiladi:

“Agar shaxs yolg‘on guvohlik jinoyatini sodir etgan bo‘lsa, hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar yoki belgilangan jarima undirilgunga qadar o‘z ko‘rsatmalarining yolg‘onligini tan olsa, bu haqida xabar bersa, unga tayinlangan jazo yengillatilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkin”.

9. Jinoyat Kodeksini 75¹-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi.

75¹-modda. “Jazoni ijro etishni keyinga qoldirish”

Jazoga hukm qilingan homilador ayollar, 14 yoshga to‘lmagan bolalalari bor va yolg‘iz ona bo‘lgan ayollarni, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etib ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etgan, terrorizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etgan shaxslardan tashqari sud jazoni o‘tashni bolaning o‘n to‘rt yoshga to‘lguniga qadar keyinga qoldirishi mumkin.

Mahkum boladan voz kechsa yoki mahkumning xulq-atvorini nazorat qiluvchi organning ogohlantirishiga qaramay tarbiyalash majburiyatidan bo‘yin tovlasa, nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi orqali sud hukmida tayinlangan jazoni o‘tashni keyinga qoldirishni bekor qiladi va mahkum hukm belgilangan jazoni o‘taydi.

Shaxs o‘n to‘rt yoshga to‘lganidan keyin sud jazoni o‘tashdan ozod qiladi, jazoning bir qismidan ozod qiladi yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtiradi. Shaxs o‘n to‘rt yoshga to‘lmasdan sud tomonidan tayinlangan jazo muddati o‘z nihoyasiga yetsa, mahkum ushbu vaqt davomida unga yuklatilgan shartlarni bajargan bo‘lsa nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi asosida sud jazoni o‘tashni keyinga qoldirish muddatini qisqartirishi va jazoni o‘tashdan ozod qilishi yoki jazoning bir qismini o‘tashdan ozod qilishi mumkin. Agar mahkum jazoni o‘tash keyinga qoldirilgan paytda yangi jinoyat sodir etgan bo‘lsa sud qoidaga ko‘ra jazo tayinlaydi.”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1. SH. M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Konstitutsiya qabul qilingan kunning 25 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimdagi nutqi matni. [http:// prezident.uz](http://prezident.uz)

2.2. SH. M. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. - "O'zbekiston". 2017y. 107 b

II. Normativ huquqiy hujjatlar:

2.1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil, 1-son. – Toshkent: Adolat, 2018.

2.2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual Kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2018 y

2.3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti" to'g'risidagi qarori. // *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2002 y., 27-son.*

2.4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori. // *O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2007 y., 16-son.*

2.5. Criminal act of South Korea. Act. No 7623, Jul. 29, 2005. [https:// www.oecd.org](https://www.oecd.org)

2.6. Penal Code of French. With the participation of John Rason SPENCER QC Professor of Law, University of Cambridge Fellow of Selwyn College. <https://www.legifrance.gouv>

2.8. Уголовный кодекс Российской Федерации (с изменениями на 8 марта 2015 года). <https://srhr.org>

2.9. The Code of the Republic of Kazakhstan dated 5 July 2014 No. 235-V. [https:// www.wipo.int](https://www.wipo.int)

2.10. Penal Code Japan. (Act No.45 of 1907). <https://www.oecd.org>

2.11. The German Penal Code. <http://www.okri.hu>

III. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

3.1. Barbara Wootton. Crime and The Criminal Law. The Hamlyn Lectures. London.: 1981.P.-89

3.2. M.Usmonaliyev.Jinoyat huquqi.Umumiy qism.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.-T.:”Yangi asr avlodi”, 2005, 662b

3.3. A. S. Yakubov. Jinoyat huquqi.Umumiy qism.-T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2009.-B. 351

3.4. M.Х.Рустамбаев. Жиноят ҳуқуқи. Итом.-Т.: “ILM ZIYO”, 2011.-Б.177

3.5. R. Kabulov, A.A. Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. - T.: O'z bekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.374.

3.6. Ф.Р. Сундурова, И.А. Тарханова. Уголовное право России. Общая часть. Учебник. Москва:2014. Казанский Государственный Университет имени В.И. Ульянова-Ленина. Электрон вариант.

IV. Avtoreferat, disseratsiya va monografiyalar

4.1. Мирзажонов К. Теория и практика амнистии и помилования: проблемы и решения. Дисс...док. юр. наук. -Ташкент.: 1995. -С.15

4.2. Матвеева Я.Н. Институт освобождения от уголовной ответственности в российском уголовном праве: модернизация и поиск альтернативных способов урегулирования уголовно-правового конфликта. авт. дисс...кан. юр. наук. - Санкт – Петербург, 2006. -С.14

4.3. Данелян С.В. Освобождение от отбывания наказания в Уголовном законодательстве российской Федерации (теоретические, законодательные и Правоприменительные аспекты). авт. дисс...кан. юр. наук. - Махачкала, 2006. - С. 3

4.4. Якоби. И.В. Развитие института уголовной ответственности и институтов освобождения от уголовной ответственности и уголовного

наказания в российском государстве: теоретический и историко-правовой аспект. авт. дисс...кан. юр. наук. - Краснодар, 2007. - С.

4.5. Qurbonov D.R. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida jinoiy javobgarlikni qo'llash muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. - Samarqand. :2008.-B.37

4.6. Niyazova Sh.G. Muddatlarning o'tganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish muammolari: Diss...yur. fan. nomzodi. - Toshkent.: 2010. -B.99

4.7. Berdiyev. Sh. Jinoyat qonunlarining liberallashtirilishi jarayonida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni takomillashtirish muammolari: Diss...yur. fan. doktori. -Toshkent.: 2011. -B.77-78

4.8. М.А.Ожиганова. Освобождение от уголовной ответственности: понятие, виды, практика применения и тенденции развития. Бакалаврская работа. -Тольяттинский государственный университет, 2016. - С.10

4.9. М.А. Стадник. //Нормы о деятельном раскаянии в истории российского уголовного законодательства и законодательстве зарубежных стран. Вестник. Казанского юридического института МВД России № 2(24) 2016.: -С.123

4.10. М. А. Стадник. Деятельное раскаяние как институт освобождения от уголовной ответственности. Авт.дисс...кан. юр. наук. - Санкт-Петербург 2017. -С.19

4.11. В.А.Терентьева.О понятии освобождения от уголовного наказания в доктрине уголовного права. // Уголовная юстиция - 2017. - №10. - С. 9

V. Ilmiy jurnallar va davriy nashrlar

5.1. Аскеров Э.Институт освобождения от уголовного наказания в уголовном законодательстве зарубежных стран. //Ж.Уголовное право. №4., 2005. -С.9.

5.2. Сверчков В.В. Освобождение от уголовной ответственности, прекращение дела (преследования), отказ в его возбуждении. Проблема

теории и практики. Санкт-Петербург.Изд.Р.Асанова. «Юридический центр Пресс» 2008 г. С 61

5.3. Sh. Berdiyev // Amnistiya akti uning asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos xususiyatlari// Oliy sud axborotnomasi, 2008 yil 1-son. xushnudbek.uz

5.4. Коробов П.В. Сущность освобождения от уголовной ответственности (исходные положения)// Вестник Волжского Университете им Татищева. 2010. № 74, С-2.

5.5. О.А.Владимирова. “О соотношении понятий «освобождение от уголовной ответственности» и «освобождение от уголовного наказания» по уголовным кодексам России и Республики Беларусь” www.institutemvd.ru.

5.6. Балафендиев А.М.// Социально-правовое назначение института амнистии. Вестник экономики, права и социологии, 2012, № 1, Право. - Казань.: С.169

5.7. В. Кузнецов, Сун Ингчун. // О некоторых вопросах уголовно-правовой регламентации изменения обстановки в России, Монголии и Китае. Вестник Омской юридической академии. 2013. № 2 (21).-С.124

5.8. Qurbonov D. Insonparvarlik instituti yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini takomillashtirish masalalari. Maqola. <http://huquqburch.uz>

5.9. О.В. Костылева. Освобождение от наказания в связи с изменением обстановки: современные тенденции правоприменения// Библиотека криминалиста. Научный журнал. Москва, 2013. -№ 2. -С.284.

5.10. А.П.Бохан, С.С.Хачатрян. Классификация видов и оснований освобождения от наказания// Юрист-Правовед. - Москва, 2014. -№. - С.59

5.11. А. М. Крепышев. Освобождение от уголовной ответственности в связи с истечением сроков давности. Доклады Башкирского университета. 2017. Том 2. №2 –С.356

5.12.Ю. С. Свешникова. Деятельное раскаяние в российском уголовном праве. Магистрская диссертация.-Красноярск.: 2017.-С.24

VI. Internet resurlari

- 6.1. [https:// www.dissercat.com](https://www.dissercat.com)
- 6.2. [https:// www.lex.uz](https://www.lex.uz)
- 6.3. [https:// cyberleninka.ru](https://cyberleninka.ru)
- 6.4. [https:// akadem.mvd](https://akadem.mvd)
- 6. 5. [https:// grandarsda.ru](https://grandarsda.ru)
- 6. 6. [https:// legalquest.ru](https://legalquest.ru)
- 6.7. [https:// lawtoday.ru](https://lawtoday.ru)
- 6.7. <https://jurisprudence.club>
- 6.8. [https:// cribs.me](https://cribs.me)
- 6.9. [https:// lawbook. Online](https://lawbook. Online)
- 6.10. <https://studme.org>
- 6.11. [https:// ugolovniy-zakon.ru](https://ugolovniy-zakon.ru)
- 6.12. <https://works.doklad.ru>

**O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksiga
o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida qonun loyihasiga**

TUSHUNTIRISH XATI

I.O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi ushbu kodeks bilan qo'riqlanadigan shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini tajovuzlardan qo'riqlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonun loyihasi javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan. Xususan, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 1-qismi "a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan kundan boshlab – ikki yil", 64-moddasi 6-qismi "Ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish masalasini sud tomonidan shaxsning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori, jinoyatchining shaxsni inobatga olgan holda hal qilinadi", degan jumlaning kiritish taklifi etiladi.

JK 66¹-moddasi 3-qism bilan to'ldirilish "Iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo'lsa, jinoyat natijasida davlat budjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo'lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi", deb to'ldirilishi javobgarlikdan ozod qilish mexanizmini shakllantirishga qaratiladi.

II. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining obyektivi jinoyat prosesual kodeksi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardir. Ushbu kodeksning 533-moddasi 1-qismini "Sudya ozodlikdan mahrum etilgan

shaxsga nisbatan hukm ijrosini quyidagi asoslardan birortasi mavjud bo'lganda kechiktirishi mumkin:

- 1) mahkum jazoni o'tashiga monelik qiladigan darajada og'ir kasal bo'lib qolganda- u sog'ayguncha;
- 2) hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa-bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga;
- 3) mahkumaning yosh bolasi bo'lsa - u o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar; o'zgartirilishi Jinoyat kodeksi bilan muvofiqlikni ta'minlaydi.

**O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi va Jinoyat Prosesual Kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish
haqida qonun bo'yicha taklif**

№	Amaldagi tahrir	Taklif etilayotgan tahrir	Asos
O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi Qonun bilan tasdiqlangan Jinoyat Kodeksi			
1	64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish. Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar: a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — uch yil; b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — besh yil; v) og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n yil; g) o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab (ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno) — o'n besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs	64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish. Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar: a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — ikki yil; b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — besh yil; v) og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab — o'n yil; g) o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab (ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno) — o'n besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs	Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini dunyo davlatlarida belgilangan asoslardan ijobiy tajriba olsih va jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni yanada liberallashtirishga qaratilgan.

	javobgarlikdan ozod qilinadi.	javobgarlikdan ozod qilinadi.	
2	64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish. 6-qism Ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi. To'lditilmoqda.	64-modda. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish. 6-qism Ushbu Kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan, javobgarlikka tortish muddatlarini qo'llash masalasi sud tomonidan shaxsning jinoyat sodir etgandan keyingi xulq-atvori, jinoyatchining shaxsni inobatga olgan holda hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi.	Mazkur taklif Jinoyat Kodeksining ushbu moddasi qismiga yanda anqilik kiritishni, amaliyotdagi maummolarni bartaraf etishga qaratilgan.
3	61-modda. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish. Ushbu Kodeks 105-moddasining birinchi qismida (qasddan badanga o'rtacha	61-modda. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish. Ushbu Kodeks 105-moddasining birinchi qismida (qasddan badanga o'rtacha	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya

og'ir shikast etkazish), 106-moddasida (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 107-moddasida (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish), 108-moddasida (ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish), 109-moddasida (qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 110-moddasining birinchi qismida (qiynash), 111-moddasida (ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish), 113-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish), 115-moddasida (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash), 116-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik), 117-moddasining birinchi qismida (xavf ostida qoldirish), 121-moddasining birinchi qismida (ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish), 122-moddasida (voyaga etmagan yoki	og'ir shikast etkazish), 106-moddasida (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish), 107-moddasida (zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish), 108-moddasida (ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish), 109-moddasida (qasddan badanga yengil shikast yetkazish), 110-moddasining birinchi qismida (qiynash), 111-moddasida (ehtiyotsizlik orqasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish), 113-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish), 115-moddasida (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash), 116-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik), 117-moddasining birinchi qismida (xavf ostida qoldirish), 121-moddasining birinchi qismida (ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur etish), 122-moddasida (voyaga etmagan yoki	qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 21 oktabrdagi PF-4850-son Farmoni talablariga ko'ra, 2017 yil 1 iyulga qadar ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida tomonlarning yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini kengaytirishni nazarda tutuvchi takliflarni ishlab chiqish belgilangan. Bugungi kunda yarashuv instituti mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari va jinoiy jazolarni liberallashtirish siyosati hamda insonparvarlik va odillik tamoyillaridan kelib chiqqan holda, javobgarlikdan ozod qilishning muhim jinoiy-huquqiy chorasi bo'lib, unga
--	--	---

mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 123-moddasida (ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 125-moddasining birinchi qismida (farzandlikka olish sirini oshkor qilish), 136-moddasida (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish), 138-moddasining birinchi qismida (zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish), 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tuhmat), 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (haqorat qilish), 1411-moddasining birinchi qismida (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), 143-moddasida (xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish), 148-moddasida (mehnat qilish huquqini buzish), 149-moddasida (mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish), 167-moddasining birinchi qismida (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish), 168-moddasining birinchi qismida (firibgarlik), 169-moddasining birinchi	mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 123-moddasida (ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash), 125-moddasining birinchi qismida (farzandlikka olish sirini oshkor qilish), 136-moddasida (ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish), 138-moddasining birinchi qismida (zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish), 139-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tuhmat), 140-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (haqorat qilish), 1411-moddasining birinchi qismida (shaxsiy hayot daxlsizligini buzish), 143-moddasida (xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzish), 148-moddasida (mehnat qilish huquqini buzish), 149-moddasida (mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish), 167-moddasining birinchi qismida (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish), 168-moddasining birinchi qismida (firibgarlik), 169-moddasining birinchi	muvofiq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45 ta moddasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarni sodir etganlik uchun shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish kamaytirishga erishiladi. Ushbu taklif dunyoning rivojlangan davlati Rossiya Federatsiyasi tajribasidan foydalangan holda, javobgarlikdan ozod qilish asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan.
--	--	--

qismida (o'g'rilik), 170-moddasining birinchi qismida hamda ikkinchi qismining «b» va «v» bandlarida (aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar etkazish), 172-moddasida (mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish), 173-moddasining birinchi qismida (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish), 180-moddasida (soxta bankrotlik), 181-moddasida (bankrotlikni yashirish), 185²-moddasida (elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish), 189-moddasida (savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), 191-moddasida (qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), 192-moddasida (raqobatchini obro'sizlantirish), 229-moddasida (o'zboshimchalik), 256-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish), 257-moddasining birinchi qismida (mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish), 258-moddasining birinchi qismida (tog'-kon,	qismida (o'g'rilik), 170-moddasining birinchi qismida hamda ikkinchi qismining «b» va «v» bandlarida (aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan mulkiy zarar etkazish), 172-moddasida (mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish), 173-moddasining birinchi qismida (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar etkazish), 180-moddasida (soxta bankrotlik), 181-moddasida (bankrotlikni yashirish), 185²-moddasida (elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish), 189-moddasida (savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish), 191-moddasida (qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), 192-moddasida (raqobatchini obro'sizlantirish), 229-moddasida (o'zboshimchalik), 256-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida (tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish), 257-moddasining birinchi qismida (mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish), 258-moddasining birinchi qismida (tog'-kon,	
--	--	--

qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish), 259-moddasining birinchi qismida (yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish), 260-moddasining birinchi qismida (temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 266-moddasining birinchi qismida (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 268-moddasining birinchi qismida (transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish), 277-moddasining birinchi qismida (bezorilik), 298-moddasining birinchi qismida (mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati	qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish), 259-moddasining birinchi qismida (yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish), 260-moddasining birinchi qismida (temir yo'l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 266-moddasining birinchi qismida (transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish), 268-moddasining birinchi qismida (transportning xavfsiz ishlashini ta'minlashga doir qoidalarni buzish), 277-moddasining birinchi qismida (bezorilik), 298-moddasining birinchi qismida (mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Chiqarilmoqda. “Iqtisodiy sohada sodir etilgan	
---	---	--

	tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. To'ldirilmoqda	jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo'lsa, jinoyat natijasida davlat byudjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo'lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi".	
	To'ldirilmoqda	66²-modda. Kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, basharti jinoyat natijasida jabrlanuvchining sog'lig'iga og'ir shikast yetkazilishi yoki uning o'limiga olib kelmagan bo'lsa, ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasi yoki qismi sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolar nazarda tutilgan bo'lsa sud tomonidan kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Kafillik jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmish uchun nazarda tutilgan jarima jazosi eng yuqori miqdorining ikki	Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida aybdorlik masalasi hal qilinmasdan turib, uning barcha huquqiy oqibatlaridan uni ozod qilinishiga aytiladi. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi JK 64-68-moddalarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi, qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi, yarashilganligi munosabati

		baravari, yuridik shaxslar tomonidan o'n baravariga teng qiymatdagi garovni ta'minlashda ifodalanadi. Kafillik quyidagi muddatlarga tuziladi: 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etilganda – olti oydan bir yilgacha; 2) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilganda – bir yildan ikki yilgacha; Kafillik qo'llangan shaxs kafillik muddati mobaynida yangi jinoyat sodir etmasa kafilga garov predmeti qaytariladi. Kafillik qo'llangan shaxs kafillik muddati mobaynida yangi jinoyat sodir etsa sud kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni bekor qiladi hamda jinoyat sodir etgan shaxsga bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanadi. Bunda garov predmeti davlat foydasiga undiriladi. Kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish korrupsiya, terrorizm,	bilan, kasallik tufayli va amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish turlari belgilangan. Ayrim MDH davlatlari jinoyat qonun hujjatlari o'rganilganda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligidan biroz farqli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutlari mavjudligi aniqlandi. Jumladan Qozog'iston Respublikasi JKning 69-moddasi hamda Ukraina Respublikasi JKning 47-moddasida kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mustahkamlangan. Jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida kafillik bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining milliy jinoyat
--	--	--	---

		ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, shuningdek jinoiy guruh yoki uyushma tarkibida jinoyat sodir etgan shaxsga hamda voyaga etmaganlar jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir shaxsga nisbatan qo‘llanilishi mumkin emas.	qonunchiligini kiritilishi jinoyat qonunchiligini liberallashtirilishiga xizmat qiladi.
4	210-modda. Pora olish (1-qism) Pora olish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lishi, — eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki	210-modda. Pora olish (1-qism) Pora olish, ya’ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o‘zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lishi, — eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki	Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar hajmining ko‘pligini inobatga olib, javobgarlikdan ozod qilish asoslarining ularga nisbatan yanada kengroq qo‘llanilishiga qaratilgan.

	yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. To'ldirilmoqda	yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Pora olish jinoyatini sodir etgan shaxs, agar u jinoiy harakatlar sodir etganidan so'ng bu haqda o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa, bunday shaxs javobgarlikdan ozod etiladi.	
5	214-modda. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki	214-modda. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki	Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar hajmining ko'pligini inobatga olib, javobgarlikdan ozod qilish asoslarining ularga nisbatan yanada kengroq qo'llanilishiga qaratilgan.

	mulkiy manfaatdor bo'lishi, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. To'ldirilmoqda	mulkiy manfaatdor bo'lishi, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, — eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi jinoyatini sodir etgan shaxs, agar u jinoiy harakatlar sodir etganidan so'ng bu haqda o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa, bunday shaxs javobgarlikdan ozod etiladi.	
6	238-modda. Yolg'on guvohlik berish Birinchi qism. Yolg'on guvohlik berish, ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoki ishni sudda ko'rish vaqtida guvoh yoki jabrlanuvchining	238-modda. Yolg'on guvohlik berish Birinchi qism. Yolg'on guvohlik berish, ya'ni surishtiruv olib borish, dastlabki tergov yoki ishni sudda ko'rish vaqtida guvoh yoki jabrlanuvchining	Tergov va sud amaliyotida ushbu turdagi jinoyatlar hajmining ko'pligini inobatga olib, javobgarlikdan ozod qilish asoslarining ushbu turdagi jinoyatlarga nisbatan yanada

	bila turib, yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa berishi, shuningdek bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilish — eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. To'ldirilmoqda	bila turib, yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa berishi, shuningdek bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilish — eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Agar shaxs yolg'on guvohlik jinoyatini sodir etgan bo'lsa, hukm qonuniy kuchga kiringunga qadar yoki belgilangan jarima undirilgunga qadar o'z ko'rsatmalarining yolg'onligini tan olsa, bu haqida xabar bersa, unga tayinlangan jazo yengillatilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkin.	kengroq qo'llanilishiga qaratilgan.
7	To'ldirilmoqda	75¹-modda. Jazoni ijro etishni keyinga qoldirish Jazoga hukm qilingan homilador ayollar, 14 yoshga to'lmagan bolalalari bor va yolg'iz ona bo'lgan ayollarni, o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etib ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm	Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining yanda liberallashtirish, ayollar jinoyatchligini oldini olishga qaratilgan.

		qilingan, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etgan, terrorizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etgan shaxslardan tashqari sud jazoni o‘tashni shaxsning o‘n to‘rt yoshga to‘lguniga qadar keyinga qoldirishi mumkin. Mahkum boladan voz kechsa yoki mahkumning xulq-atvorini nazorat qiluvchi organning ogohlantirishiga qaramay tarbiyalash majburiyatidan bo‘yin tovlasa, nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi orqali sud hukmida tayinlangan jazoni o‘tashni keyinga qoldirishni bekor qiladi va mahkum hukm belgilangan jazoni o‘taydi. Shaxs o‘n to‘rt yoshga to‘lganidan keyin sud jazoni o‘tashdan ozod qiladi, jazoning bir qismidan ozod qiladi yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtiradi. Shaxs o‘n to‘rt yoshga to‘lmasdan sud tomonidan tayinlangan jazo muddati o‘z nihoyasiga yetsa, mahkum	
--	--	--	--

		ushbu vaqt davomida unga yuklatilgan shartlarni bajargan bo'lsa nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi asosida sud jazoni o'tashni keyinga qoldirish muddatini qisqartirishi va jazoni o'tashdan ozod qilishi yoki jazoning bir qismini o'tashdan ozod qilishi mumkin. Agar mahkum jazoni o'tash keyinga qoldirilgan paytda yangi jinoyat sodir etgan bo'lsa sud qoidaga ko'ra jazo tayinlaydi.	
I. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Proessual kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2017-yil, 1-son)			
	1. 533-modda 1-qismi “Sudya ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga nisbatan hukm ijrosini quyidagi asoslardan birortasi mavjud bo'lganda kechiktirishi mumkin: 4) mahkum jazoni o'tashiga monelik qiladigan darajada og'ir kasal bo'lib qolganda- u sog'ayguncha; 5) hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa-	2. 533-modda 1-qismi Quyidagi tahrirda bayon qilinsin: “Sudya ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga nisbatan hukm ijrosini quyidagi asoslardan birortasi mavjud bo'lganda kechiktirishi mumkin: 1) mahkum jazoni o'tashiga monelik	Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish asoslarining yanda liberallashtirish, ayollar jinoyatchligini oldini olishga qaratilgan.

	bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga; 6) mahkumaning yosh bolasi bo'lsa- u uch yoshga to'lgunga qadar; 7) jazoni darhol o'tashni boshlash yong'in yoki boshqa biror tabiiy ofat yuz berganligi, oilaning mehnatga yaroqli yagona a'zosi og'ir kasal bo'lib vafot etganligi oqibatida yoki boshqa favqulodda holatlar mahkum yoki uning oilasini juda mushkul ahvolga solib qo'yishi mumkin no'lsa- uch oydan oshmagan muddatga, -deb belgilangan.	qiladigan darajada og'ir kasal bo'lib qolganda- u sog'ayguncha; 2) hukmni ijro etish paytigacha mahkuma homilador bo'lib qolsa- bir yildan oshiq bo'lmagan muddatga; 3) mahkumaning yosh bolasi bo'lsa- u o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar; 4) jazoni darhol o'tashni boshlash yong'in yoki boshqa biror tabiiy ofat yuz berganligi, oilaning mehnatga yaroqli yagona a'zosi og'ir kasal bo'lib vafot etganligi oqibatida yoki boshqa favqulodda holatlar mahkum yoki uning oilasini juda mushkul ahvolga solib qo'yishi mumkin no'lsa- uch oydan oshmagan muddatga, -deb belgilangan.	
--	--	---	--

**O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish
haqida qonun bo'yicha loyihasi bo'yicha xalqaro tajriba**

№	Mamlakat	Normativ-huquqiy hujjat	Qonun hujjati moddasi	Izoh
1	Rossiya Federatsiyasi	Jinoyat Kodeksi	Jabrlanuvchi bilan yarashilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish” deb nomlangan 76-moddasi	Uncha og‘ir bo‘lmagan va o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs jabrlanuvchi bilan yarashganligi, unga yetkazilgan zararni to‘la qoplaganligi sababli javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. Iqtisodiy sohada sodir etilgan jinoyatlar sodir etgan shaxs jinoyat natijasida shaxsga, davlatga, tashkilotga yetkazilgan zarar qoplangan bo‘lsa, jinoyat natijasida davlat byudjetiga yetkazilgan zarar besh marta qoplangan bo‘lsa shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi.
2	Rossiya Federatsiyasi	Jinoyat Kodeksi	Jazoni ijro etishni keyinga qoldirish. 82-modada	Jazoga hukm qilingan homilador ayollar, 14 yoshga to‘lmagan bolalalari bor va yolg‘iz ona bo‘lgan ayollarni, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan jinsiy jinoyatlar sodir etib ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun

				besh yildan ortiq ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan, shaxsga qarshi jinoyatlar sodir etgan, terrorizm bilan bog‘liq jinoyat sodir etgan shaxslardan tashqari sud jazoni o‘tashni bolaning o‘n to‘rt yoshga to‘lguniga qadar keyinga qoldirishi mumkin. 82.1 Mahkum boladan voz kechsa yoki mahkumning xulq-atvorini nazorat qiluvchi organning ogohlantirishiga qaramay tarbiyalash majburiyatidan bo‘yin tovlasa, nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi orqali sud hukmida tayinlangan jazoni o‘tashni keyinga qoldirishni bekor qiladi va mahkum hukm belgilangan jazoni o‘taydi. 82.2 Bola o‘n to‘rt yoshga to‘lganidan keyin sud jazoni o‘tashdan ozod qiladi, jazoning bir qismidan ozod qiladi yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtiradi. 82.4 Bola o‘n to‘rt yoshga to‘lmasdan sud tomonidan tayinlangan jazo muddati o‘z nihoyasiga yetsa, mahkum ushbu vaqt davomida unga yuklatilgan shartlarni bajargan bo‘lsa nazorat qiluvchi organning taqdimnomasi asosida sud
--	--	--	--	--

				jazoni o'tashni keyinga qoldirish muddatini qisqartirishi va jazoni o'tashdan ozod qilishi yoki sudlanganlik olib tashlangan holda jazoning bir qismini o'tashdan ozod qilishi mumkin. 5 Agar mahkum jazoni o'tash keyinga qoldirilgan paytda yangi jinoyat sodir etgan bo'lsa sud qoidaga ko'ra jazo tayinlaydi.
3	Yaponiya	Jinoyat Kodeksi	170-moddasi	Agar shaxs yolg'on guvohlik jinoyatini sodir etgan bo'lsa, hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar yoki belgilangan jarima undirilgunga qadar o'z ko'rsatmalarining yolg'onligini tan olsa, bu haqida xabar bersa, unga tayinlangan jazo yengillatilishi yoki jazodan ozod qilinishi mumkin.

